جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2026-yil 13-fevral
№ 7 (111)
www.jadid.uz

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

ADABIYOT — XALOSKOR KUCH, NAJOT TUYNUGI

Avvalo, buyuk bobolar qatori bu ikki dahoga bo‘lgan munosabat keyingi yillarda nafaqat yurtimizda, balki dunyoda tubdan o‘zgardi. To‘g‘rirog‘i, Prezidentimiz olib borayotgan tarixiy adolat siyosati boshqa mamlakat va xalqlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etilishi, Andijonda Bobur shahri barpo etilishi barobarida kuni kecha Pokistonning Islomobodida Bobur bog‘i bunyod etilgani olamshumul voqeadir. Bashariyatga namuna tarzida ko‘rsata oladigan ma’naviy xazina o‘ziga xos ma’rifiy diplomatiya bo‘lib, millatni tanitishga, hurmat qilishga va hisoblashishga asos bo‘ladi. Bizning qo‘limizda ana shunday qudratli vosita bor. Faqat buni o‘zimiz, ayniqsa, yoshlarimiz teran his qilib, chuqurroq o‘rganishimiz kerak.

(8-sahifada o‘qing).

MUNOSABAT

BUYUK TEMURIYLAR

Tarix shunday ko‘zguki, unda millatning nafaqat o‘tmishi, balki kelajakdagi salohiyati ham aks etadi. Dunyo xaritasini o‘zgartirgan, ilm-fan va madaniyatga homiylik qilib, Osiyo, Afrika va Yevropa o‘rtasida oltin ko‘prik o‘rnatgan Sohibqiron Amir Temur shaxsi xalqimiz barobarida butun bashariyat tarixining ajralmas qismidir.



Mustabid tuzum davrida Amir Temur shaxsiyati qasddan qoralangani, uning jahon tamaddunidagi roli soxtalashtirilgani sir emas. Mustaqillik yillarida tarixiy adolat qaror topdi. Sohibqironning muborak nomi va xotirasi tiklanishi xalqimizning o‘zligini anglashida tub burilish yasadi.

Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining markaziy maydonlarida Sohibqironning mahobatli haykallari qad rostladi. Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil etilishi, “Amir Temur” ordenining ta’sis qilinishi va Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati – bularning barchasi ulug‘ ajdodimizga bo‘lgan yuksak ehtiromning amaliy ifodasidir. Amir Temur asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan davr tarixga “Temuriylar Renessansi” yoki “Ikkinchi Uyg‘onish davri” nomi bilan kirdi. Bu davrda Movarounnahr ilm-fan, me’morchilik va san’atning dunyoviy markaziga aylandi. Sohibqironning “Kuch – adolatda” degan tamoyili davlat boshqaruvining bosh mezoni bo‘lib, bu barqarorlik va yuksalishni ta’minladi. O‘sha davrda yaratilgan me’moriy obidalar, Mirzo Ulug‘bekning falakiyot ilmidagi kashfiyotlari, Alisher Navoiyning adabiy merosi bashariyatning bebaho boyligi hisoblanadi.

Bugun O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga – Uchinchi Renessansni barpo etish davriga qadam qo‘ymoqda. Bu jarayonda ajdodlar o‘giti va temuriylarning davlatchilik maktabini o‘rganish hayotiy zaruratga aylandi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 5-fevral kuni qabul qilingan “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaror yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Bu qaror shunchaki yubiley sanasini nishonlash emas, balki milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar oldidagi qarzdorlik va kelajak avlod uchun mustahkam ma’naviy poydevor yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir.

(Davomi 2-sahifada).

14-FEVRAL – ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUD TOPGAN KUN

SHOIRLAR ICHRA SHOH, SHOHLAR ICHRA PODISHOH

SHE’RIYAT

Bobur she’riyatining o‘ziga xosligi samimiyligida, shuningdek, barcha birdek tushuna olishidadir. Shoir lirikasi markazida muhabbat va hijron, pok sevgini ulug‘lash, visol orzusi, vafodorlik mavzulari turadi. Har bir she’rida shoir hayotining manzaralari aks etadi. Shu bois, Bobur she’riyatini uning biografiyasi sifatida baholash mumkin.

Bobur o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoir. Bir ruboiysida va “Boburnoma”ning 1509-1510-yillar voqealari bayonida Samarqand hokimi Po‘lot Sultonga devonini yuborganini ta’kidlaydi. Ayni paytga qadar “Bobur devoni”ning 10 ta qo‘lyozmasi topilgan bo‘lib, keyingi tadqiqotlarga ko‘ra shoirning hali ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan yana bir qo‘lyozma nusxasi ham mavjudligi aniqlangan. Bobur



devonining qo‘lyozma nusxalari bugungi kunda Angliya, Fransiya, Hindiston va Turkiya kabi mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

FAKT

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-fevral kuni Sudyalar oliy kengashi raisining axboroti bilan tanishdi.
- O‘zFA O‘simlik moddalari kimyosi instituti olimlari mahalliy o‘simliklardan ekologik toza, to‘liq bioparchalanadigan plyonka olishning yangi, optimal resepturasini ishlab chiqdi.
- Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hududida Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan buyuk shoir va mutafakkir sharafiga o‘rnatilgan haykalning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.
- Dubay shahrida o‘tayotgan para yengil atletika bo‘yicha Gran-pri turnirida O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi Mahliyo Akramova bulava uloqtirishda oltin medalni qo‘lga kiritdi.

XALQARO ANJUMAN

ADABIY KO‘PRIK



Belgiya qirolligi poytaxti Bryussel shahrida hazrat Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-ma’rifiy kecha bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda mamlakatimizning Belgiyadagi elchisi G‘ayratbek Fozilov buyuk mutafakkir shoirning umuminsoniy qadriyatlar tarannum etilgan bebaho adabiy merosini birgalikda o‘rganish Markaziy Osiyo va Yevropa xalqlari o‘rtasida madaniy va davlatlararo rishtalarni mustahkamlashga hissa qo‘shishini ta’kidladi. Xalqaro sayyohlikka yo‘naltirilgan “Travel tomorrow” nashri asoschisi Antonio Buskardini esa Alisher Navoiy O‘zbekiston madaniyati, tili va turizmining o‘tmishi, buguni va kelajagini bog‘lab turuvchi eng qudratli ramzlardan biri bo‘lib qolayotganini alohida qayd etdi. Turkiy tilli davlatlar adabiyoti va madaniyati bo‘yicha mutaxassis P.Bastiyen o‘zining o‘lmas asarlari vositasida zamonaviy o‘zbek tilining tamal toshini qo‘ygan ulug‘ shoir dunyo adabiyoti va madaniyatida zalvorli o‘rin tutishi haqida so‘z yuritdi. “EUReflect” nashri vakili, olima Derya Soysal ham Alisher Navoiy merosining beqiyos ahamiyatini ta’kidlab, shoir qalamiga mansub ruboiylardan o‘qib berdi.

Tadbir qatnashchilari madaniy diplomatiyaning millatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash sohasidagi beqiyos ahamiyatini ulug‘ shoir va davlat arbobining faoliyati va merosi misolida yana bir karra e’tirof etdilar.

Sharifjon AHMAD.
Bryussel

DURDONA

Zahiriddin Muhammad BOBUR

* * *

Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo mango,
Kelsun, agar yuzumni evursam, balo mango.

Netkaymen, ul rafiq bilakim, qilur base
Mehr-u vafo raqibg‘a javr-u jafo mango.

Begona bo‘lsa aql meni telbadin, ne tong,
Chun bo‘ldi ul pariy sifatim oshno mango.

Oh-u yoshimdin ortadurur za’f, ey tabib,
Bildim yarashmas emdi bu obu havo mango.

Dardim ko‘rub mu’olajada zoyi etma umr
Kim, jonda dardi ishqdurur bedavo mango.

To yor kimni istar-u ko‘nglina kim yoqar,
Tashvishi bejihatdurur oxir sango, mango.

Bobur bo‘lubturur iki ko‘zum yo‘lida to‘rt,
Kelsa ne bo‘ldi qoshima bir-bir mango-mango.

YAXSHILAR YODI

Saksondan hatlagan Jalil Sultonovning vafot etganini kimdir bildi, kimdir bilmadi. Ammo bu xabar qariyb o‘n ming chaqirim olisdagi Yaponiya ahlini ham g‘amnok qildi. Hamkasblar bilan ta’ziyaga borar ekanmiz, u yerda o‘zimizning qorako‘zlar qatorida yapon do‘stlarimizni ham ko‘rib mutaassir bo‘ldik. Ular-da, jigaridan ayrilganday yosh to‘kardi. Ikki xalq mehrini qozongan bu inson kim edi?



ODAMIY ERSANG...

Gapni sovet-yapon urushidan boshlashga to‘g‘ri keladi. Ushbu muhoraba Yaponiya mag‘lubiyati bilan yakunlanadi va 600 mingdan ortiq askar asir olinib, sobiq ittifoq respublikalariga sochib yuboriladi. 1945–1950-yillarda O‘zbekiston hududida ana shunday taqdir egalaridan 23 ming nafari istiqomat qilgan. Yapon harbiy asirlari Farhod GESi, Toshkent to‘qimachilik kombinati, Markaziy telegraf, Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri binosini barpo etishda yuksak mehnat madaniyatini namoyish etgan.

Boshqa hududlardan farqli ravishda, bizda yaponlarga mahbus emas, musofir sifatida qaralgan. Rahbarlar ham imkon qadar zarur shart-sharoitlarni yaratib bergan. Xalqimiz asirlar bilan tez til topishib ketadi, ular bilan uyini, nonini baham ko‘radi. Natijada kunchiqar yurt vakillari serquyosh o‘lkamizda deyarli kasallik va o‘lim domiga tushmaydi. Ularni vatan sog‘inchi va bo‘ynidagi asirlik tamg‘asi azoblardi, xolos.

Musofirlar shu holda ham haqiqiy yapon xarakterini namoyish etadi. O‘zlariga yuklatilgan vazifalarni astoydil, tartib-intizom asosida, sifatli va ishonchli bajaradi.

(Davomi 2-sahifada).

SAFARNOMA

KOBUL AZIMATI



“FAZL VA HUNAR AHLINING MASKANI”

Har shaharki, inson bilan obod-u barbod bo‘lur. Temuriylar davrining durdona shaharlaridan biri bo‘lgan Hiriyda bir paytlar san’at, adabiyot, musiqa, xattotlik va ma’morlik gullab-yashnagan...

Qadamba-qadam kezib ko‘rdimki, faqat Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, shoh va shoir Husayniy, Hofizi Abru, tarixchi Mirxond, musavvir Kamoliddin Behzod kabi sanoqli ijodkorlardan yodgorliklar qolgan... Ba’zan atrofga jonsarak alanglayman – “Majolis un-nafois” asarida qalamga olingan 450 nafar shoir qani? Har holda, hazratimiz shoir deb tan olgan bo‘lsa, demak, puxtagina yozganlar ko‘p o‘tgan. Ulardan nimalar qoldi? Nahot, tarix shuncha beshafqat?

Shularni o‘ylab, zamonaviy Hirot ko‘chalarini tun-u kun sarbast kezdim. Bu yerda mamlakatning shimoliy viloyatlarida bo‘lgani kabi o‘zbeklar ko‘p emas. Hamrohimning aytishicha, ulug‘ turkiy bobolarning hozirgi avlodlari forsiyga to‘la o‘tib ketgan. Ammo peshlavhalarning ayrimlari xursand qildi. Misol uchun bundog‘: “Temuriylar shifoxonasi”, “O‘zbeklar choyxonasi”, “Foryob mehmonxonasi”...

(Davomi 4-sahifada).

BUYUK TEMURIYLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu bilan birga, ayni kunlarda mamlakatimizda so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomlari yuqori saviyada nishonlanmoqda. Ushbu zanjirning davomi sifatida Amir Temur yubileyiga tayyorgarlik ko‘rilishi O‘zbekistonning o‘z tarixiy ildizlariga sodiqligini, Turon tamaddunining vorisi ekanini dunyoga yana bir bor namoyish etmoqda.

Amir Temur shaxsiga qiziqish hech qachon so‘nmagan. Dunyoning nufuzli kutubxonalarida Sohibqironga bag‘ishlangan minglab asar saqlanadi.

Amir Temurning tarix oldidagi eng birinchi va buyuk xizmati qariyb 150 yil davom etgan mo‘g‘ul istibdodiga chek qo‘yganidir. U nafaqat Movarounnahrni, bugungi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston, Eron, Hindiston, Pokiston va Ozarbayjon kabi o‘ndan ortiq davlatlar hududini mo‘g‘ullar asoratidan ozod qildi. Bu xalqlarning milliy o‘zligini saqlab qolishi va davlatchiligini tiklashida Temurning qilichi adolat quroli bo‘lib xizmat qildi. O‘z tarkibiga Osiyo, Yevropa va Afrika qit’alaridan 30 ga yaqin davlatni qamrab olgan, 4 million kvadrat kilometr maydonni egallagan Sohibqironning ulkan saltanati Hindiston va Xitoy chegaralaridan Qora dengizgacha, Sirdaryodan Fors qo‘ltig‘igacha bo‘lgan ulkan hududda tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minladi. Bu jahon tarixidagi eng qudratli va mukammal boshqarilgan davlatlardan biri edi.

Harbiy san’at tarixida Amir Temurga teng keladigan qo‘mondonni topish mushkul. U 1370-yildan umrining oxirigacha – 35 yil davomida Turon davlati qatnashgan barcha urush va janglarda g‘olib chiqdi. Amir Temurning ulug‘ sifati shundaki, u faqat fotih emas, balki buyuk bunyodkor va ma’rifatparvar edi. Uning sa’y-harakatlari bilan Sharqda “Ikkinchi Renessans” davri boshlandi. Poytaxt Samarqand dunyoning ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Temuriylar davri madaniyati va san’atining ta’siri insoniyat ma’naviy olamida olti yuz ellik yildan ortiq vaqt davomida porlab turibdi. Shu nuqtayi nazardan, Amir Temur qoldirgan meros – bugungi Yangi O‘zbekiston uchun Uchinchi Renessans poydevorini qurishda asosiy kuch va ilhom manbaidir.

Prezident qarorida temuriylar merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish vazifasi qo‘yilgani bejiz emas. Bugungi kunda “Temur tuzuklari” nafaqat davlat boshqaruvi san’ati, balki insoniylik, adolat va intizom darsligi sifatida ham xizmat qilmoqda. Buyuk Temur davlatni tashkil etish va boshqarishning mutlaqo yangi siyosatini yaratdi, ya’ni o‘z davrining adolatli va progressiv davlat siyosati nazariyasini ishlab chiqdi va uni amaliyotga joriy etdi.

Qaror bilan temuriylar davri ilmiy merosini tizimli o‘rganish, nodir qo‘lyozmalarni aniqlash va ularni raqamlashtirish kabi vazifalarning belgilanishi tarix ilmida yangi sahifa ochadi. Zamonaviy elektron platformalarning yaratilishi va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o‘tkazilishi – O‘zbekistonning “madaniy diplomatiya”sini yangi bosqichga olib chiqadi.

Bugungi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan sharoitda yosh avlod qalbida milliy g‘ururni shakllantirish hayotiy zaruratdir. Amir Temur siymosi bu borada eng mustahkam qalqon vazifasini o‘taydi. Bobomizning jasorati, qat’iyati va ma’rifatparvarligi yoshlarimiz uchun haqiqiy ibrat maktabi, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Prezident qaroriga ko‘ra, Amir Temur va temuriylarning jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasini keng targ‘ib qilish maqsadida “Buyuk temuriylar” atamasining xalqaro ilmiy istiloh sifatida joriy qilinishini ta’minlash, yurtimizda va xorijiy davlatlarda xalqaro konferensiyalar, taqdimotlar, media tadbir va anjumanlar o‘tkazish, “Temur tuzuklari” asarining ilmiy izohli matnini fors, arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan va rus tillarida chop etish, “Temuriylar davrining 100 nodir qo‘lyozmasi”, “Temuriylar davrining 100 nodir durdonasi” kitob-albomlarini yaratish, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan asl yozma manbalar nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish, “Tirik tarix” loyihasida suratga olingan Amir Temur davriga oid badiiy va hujjatli filmlarni xorijiy mamlakatlarda namoyish etish, har yili aprel oyini “Amir Temur oyligi” deb e’lon qilish, barcha ta’lim maskanlari, harbiy qismlar va harbiy ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar, mahallalarda ma’rifiy tadbirlar uyushtirish kabi vazifalar ham tariximizni o‘rganish va uni butun dunyoda targ‘ib etish ishiga xizmat qiladi.

Sohibqiron Amir Temurga ehtirom – bu bizning birligimiz, vatanparvarligimiz ifodasi, kelajakdagi ulug‘ maqsadlarimiz sari tashlangan qadamdir. Buyuk bobomizning munavvar siymosi bizga milliy g‘urur, qat’iyat va adolat tuyg‘usini baxsh etadi. Sohibqiron merosini o‘rganish orqali biz nafaqat o‘z tariximizni ulug‘laymiz, balki Yangi O‘zbekistonning yorug‘ istiqboli uchun mustahkam ma’naviy quvvat olamiz, shu asosda, buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lishga, ular yaratgan taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqishga mas’ul ekanimizni chuqur his qilamiz.

Jamoliddin BADALOV

ODAMIY ERSANG...

Boshlanishi 1-sahifada.

“Biz baribir bir kun ketamiz, qolganlar nima qilsa o‘zi biladi”, degan kayfiyatga berilmaydi. Har bir obyektga mas’uliyat bilan yondashib, o‘z imzosini qoldiradi.

Mag‘rub yillari davomida o‘zbeklar orasidan og‘a-ini, do‘st-yorlar orttiradi. Mehr ko‘rgizgan mardumlarga bejirim va betakror sovg‘alar yasab beradi. 1950-yillarda siyosiy vaziyat yumshab, yapon asirlar vataniga qaytib ketgach, bu buyumlar qimmatli yodgorlik bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Yaponiya bilan ham do‘stlik aloqalari o‘rnatildi. Tarixiy munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Mutaxassisligi muhandis, qilichbozlik bo‘yicha sport ustasi bo‘lgan Jalil Sultonov 1998-yili dunyo davlatlari tajribasida naziri yo‘q ishga qo‘l urdi. Toshkent shahrida, o‘z uyida yapon askarlari xotira muzeyiga asos soldi. Bu ishga davlat buyurtmasi yo kimningdir undovi bilan emas, vijdon amri bilan qo‘l urdi. Buning uchun shaxsiy mablag‘i va mulkini ayamadi.

Ammo qamrov chegarasi sabab bu muzey uchun ma’lumotlar ham, eksponatlar ham juda tor doirada mavjud edi. Eng murakkab jihati, mustamlakachilar kelgusida o‘zini oqlash uchun asirlar haqidagi hujjatlarni yashirgan yoki qasddan o‘zgartirgan, bo‘yagan, yolg‘on aralashtirgan. Ularni topish, aniqlash va haqiqatni yuzaga chiqarish uchun necha ming sahifalik arxiv hujjatlarining changini yutish, rohat-farog‘atda o‘tkazish mumkin bo‘lgan keksalik davrini mana shu mashaqqatli ishga bag‘ishlash kerak edi. Jalil Sultonov ana shu qiyinchiliklardan cho‘chimay, dadil ishga kirishdi. Go‘yo tuproqdan tilloni ajratib oldi.

Vaqt o‘tib, Toshkent, Bekobod, Chirchiq, Angren shaharlaridan yapon asirlari haqida qimmatli faktlar va ularga tegishli buyumlarni jamlab, muzeyni boyitdi. Bugungi kunda ko‘rgazmadan Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng O‘zbekistonda yashagan yapon fuqarolari hayotini aks ettiruvchi 21 ta eksponat va 200 dan ortiq fotosurat o‘rin olgan. Balki eksponatlar sanog‘i oz ko‘rinar, lekin salmog‘i shu qadar ekanki, ta’rif-u tavsifi Yaponiya imperatorigacha yetib boradi. Yapon xalqi bu maskan borligidan xabardor bo‘lgach, muzey tashkilotchisiga cheksiz hurmat-ehtiromini bildiradi. Bir vaqtlar asirlikni boshdan kechirgan, hali hayot bo‘lgan fuqarolar O‘zbekistonga kela boshlaydi. Og‘ir yillarda yaponlar bilan munosabatda bo‘lgan yurtdoshlarimiz ham ushbu dargohning aziz mehmoniga aylanadi.

Jalil Sultonov Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Yaponiyaning “Ko‘tarilayotgan quyosh: oltin va kumush nurlar” imperatorlik ordeniga loyiq ko‘rildi. O‘zbekistonning “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandi. Davlat mukofotini shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qo‘lidan qabul qilib oldi. Bu e’tiroflar ikki davlat o‘rtasidagi xalq diplomatiyasining yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi.





Ushbu muzey faqat ikki xalq va davlat o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik emas, balki dunyoga urush va mustamlakachilikning dahshatli oqibatlari haqida hikoya qiluvchi barhayot roviydir. O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” asariga yozilgan so‘zboshida ta’kidlaganiday: “Urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o‘tkazdi. Mushkul damlarda imonini, insonligini saqlab qolgan otaonalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o‘rnak bo‘lsa, ne ajab!” Said Ahmadning “Oftoboyim” hikoyasi, Odil Yoqubovning “Qaydasan, Moriko?” qissasida yapon xalqining urush davridagi buyuk matonati, ichki kechinmalari aks etadi. “Ulug‘ Amir va donna Mariya” filmida ushbu muzeyga alohida urg‘u berilgan. Muzey ham aslida san’at asari, noyob durdona. Uni o‘qiy olsak, bas!



Bugun Jalil Sultonov oramizda yo‘q. Ammo u yillar davomida o‘z ishining mohiyatini farzandlari, nevaralari ongiga singdira oldi. Xususan, nevarasi Risolat Sultonova muzey direktori o‘rinbosari sifatida so‘nggi yillarda bobosining suyanchiga aylandi:

– Bobom shijoatli, qiziquvchan, charchamaydigan, ko‘ngli toza, bilimdon inson edi. “...edi” deb aytish qanchalik og‘ir. Hech qachon bir manzilda to‘xtab qolmasdi, hech bir ishni chala qoldirmagan. Maqsadlari shu qadar katta ediki, ba’zan “24 soat menga kam”, derdi. Birov haqida yomon gapirmasdi, hatto dushmanlariga ham omad va boylik tilardi. Bobom bizga katta meros qoldirib ketdi. Bu shunchaki madaniy obyekt emas, balki Jalil otamning umridan butun bir davr. Kelgusida muzeyni yangi eksponatlar bilan boyitish, yurtimizda bo‘lgan yapon asirlari, ularning avlodlari bilan aloqalarni mustahkamlash, muzeyni YUNESKO ro‘yxatiga qo‘shish, bobomning mavzuga doir ishlagan filmini davom ettirish rejamizda bor.

Dunyoda quyosh bitta, lekin inson qalbi cheksiz, unda qancha quyoshlar suzib yuradi. Ulardan biri – xotira quyoshi. U nafaqat o‘tmishni yoritadi, balki bugunga harorat, kelajakka charog‘bon bo‘ladi.

Bir qarashda jadid bobolar yo‘li qatag‘on yillari kesilganday ko‘rinadi. Aslida bu qutlug‘ harakat turli ko‘rinishda, turfa insonlar timsolida yashab kelayotir. Bundoq qaraganda dunyoning ters tomonida tug‘ilgan, hech bir jihatdan manzili kesishmaydiganday tuyuladigan jabrdiydalarga beta’ma yodnoma barpo qilish, marhumlar xotirasini mangu e’zozlash kabi savob ishni bugungi dunyo qaysi andozaga soladi, qanday o‘lchovlarga tortadi? Bunday odamiylik namunasini Mir Alisher Navoiyga ma’naviy murid bo‘lgan, fidoyi jadidlarga sodiq izdosh bo‘lgan hazrati insongina amalga oshiradi. Jalil otaning ibratli umri odamgarchilik mezonlarini umumbashariyat insoniyligi rutbasiga qadar yuksaltirdi.

“Odamiy ersang, demagil odami...”

Otabek BAXTIYOR

SHOIRLAR ICHRA SHOH, SHOHLAR ICHRA PODISHOH

Boshlanishi 1-sahifada.

QOMUSIY ASAR

Buyuk mutafakkir ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkuri shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa egadir. Uning qomusiy asari “Boburnoma”da katta bir davr tarixi mujassam.

Asar qimmatini oshiradigan jihatlardan biri, unda bir yarim mingdan ziyod shaxs nomi zikr etilgan. Ayniqsa, ilm-fan, san’at va adabiyot ahliga keng o‘rin berilgani alohida e’tiborga molik. Shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston xalqlarining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, shu mamlakatlar geografiyasi, o‘simliklari va hayvonot dunyosi to‘g‘risida juda ko‘p ma’lumot keltiriladi.

Asar o‘z xarakteri bilan nafaqat turkiy tildagi tarixnavislik – memuarchilikda favqulodda hodisa, balki Sharq madaniyati tarixida ham ajoyib yangilik, nodir adabiy manba sifatida ardoqlidir. Shu sababli u XVI asrdayoq bir necha marta fors tiliga tarjima qilindi. Keyinchalik Yevropa tillarida bir necha bor nashr etildi, batafsil o‘rganildi. Asar shu kunga qadar yigirmadan ortiq tilga 40 martadan ziyod tarjima qilingan bo‘lib, ularning har biri turli yillarda qaytadan chop etilgan. Umuman, Bobur asarlari haqida minglab ilmiy asar yozilgan.

“Boburnoma”ning XVI–XX asrlarda ko‘chirilgan 17 ta qo‘lyozmasi ma’lum, ular asosida muhim ilmiy tadqiqotlar bajarilgan. Dunyo olimlarining Bobur va boburiylarga bo‘lgan yuksak ehtiromini yuzlab nodir tarixiy, ilmiy-adabiy manbalar misolida ham ko‘rish mumkin.

ILMIY-ADABIY MEROS

Boburdan bizgacha beshta asar: “Boburnoma”, “Devon”, “Mubayyin”, “Aruz risolasi” va “Risolayi volidiya” yetib ketgan. Musiqa va harb ishiga oid asarlari bugunga qadar topilmagan.

Bobur yangi yozuv kashfiyotchisi ham edi. Yigirma yoshida “Xatti Boburiy”ni kashf qilgan. U “Boburnoma”ning bir necha o‘rnida, shuningdek, bir she’rida o‘zi yaratgan yozuv haqda to‘xtalib o‘tadi. Ammo bobur shunoslikda ushbu xat bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘p emas. Bu borada mamlakatimiz olimlaridan tashqari, Afg‘oniston, Eron, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Hindiston, Turkiya va Pokiston olimlari tadqiqot olib borgan.

Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur so‘fiy – Xoja Ubaydulloh Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi. Umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, “Boburnoma”da Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etgani, og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganini ta’kidlaydi. Xoja nevaralaridan ikki kishi Bobur xizmatida bo‘lgan. Ayniqsa, Xoja Kalonning Bobur bilan qadrdonligi bir umrlik xizmati bilan izohlanadi. Bobur Xoja Ahrorning fors tilida nasrda yozilgan “Volidiyya” asarini she’riy usulda o‘zbek tiliga jami 243 bayt qilib tarjima qilgan. Xullas, Bobur bir umr shariatpanoh hukmdor bo‘lib yashaganini asarlari va boshqa tarixiy manbalardan bilish mumkin.

O‘ZBEKISTONDA BOBURSHUNOSLIK

Mamlakatimizda Bobur shaxsini elga tanitish, bu buyuk siymo asarlarini ilmiy tadqiq etish jarayonida jadidlarning o‘rni katta bo‘ldi. Bu ishga Shokirjon Rahimiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy kabi ma’rifatimiz fidoyilari o‘ziga xos hissa qo‘shdi. Shokirjon Rahimiyning 1923-yilda “Bilim o‘chog‘i” jurnalida bosilgan “Zahiriddin Muhammad Bobur” maqolasi ushbu yo‘nalishdagi ilk tadqiqotlar sirasiga kiradi. Avloniyning Afg‘oniston xalq maorifi vaziri, so‘ng sovet ittifoqining Afg‘onistondagi elchisi vazifasida xizmat qilgan davri voqealari aks etgan “Sayohatnoma” asarida Bog‘i Boburni ziyorat qilgani va ulug‘ shoir haqidagi o‘y-kechinmalari bayon etilgan. Albatta, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida “Boburnoma” asari eslab o‘tilishi ham aslo tasodif emas edi.

Bobur she’riyati Cho‘lpon ijodiga ta’sir etganiga oid ko‘plab misollar bor. Fitrat tomonidan 1928-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida Boburning 31 g‘azali, 2 masnaviysi, 28 ruboiysi va “Boburnoma”dan parchalar kiritilgani o‘sha davr uchun tarixiy voqelik bo‘lgan. Otajon Hoshimning ushbu kitobga yozgan so‘zboshisida ham Bobur hayoti va ijodi haqida ko‘p ma’lumot berib o‘tilgan.

Qonli qatag‘on yillari, Bobur nomi va uning ijodiga munosabat yaxshi bo‘lmagan zamonlarda “Литературная энциклопедия” (1937) kitobiga Olim Sharafiddinov va Sotti Husayn tomonidan “O‘zbek adabiyoti” nomli maqolaning yozilishi va unda Bobur ijodiga oid eng muhim va xolis ilmiy baho berilgani o‘z davri uchun katta jasorat bo‘lgan. 1958-yili Andijon davlat pedagogika instituti rektori, shoir va adib Abdumannop Egamberdiyev tashabbusi bilan Bobur tavalludining 475 yilligi tantana qilingan. Ushbu tantanalarda hofiz Faxriddin Umarov Boburning “Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitgaymen” deb boshlanuvchi g‘azalini ilk bor ijro etgan.

“Boburnoma”ni tanitishda Fitrat tadqiqotlarining ahamiyati katta. Manbalarga ko‘ra, uning o‘ndan ortiq ilmiy asar va qo‘llanmalarida Bobur nomi tilga olinadi. Jumladan, “Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham havaslilar uchun qo‘llanma” (1926) darsligida Bobur va uning ijodi haqida yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligida birinchi bo‘lib ma’lumot berilgan. “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1-jild, 1928) majmuasida “Boburnoma”ning Hindiston qismi tabdil etilib, O‘zbekistonda ilk marta nashr qilingan. “Adabiyot qoidalari” kitobida eng ko‘p misol ham Bobur ijodidan keltirilgan. Fitrat, shuningdek, “Aruz haqida” (1935) risolasida turkiy aruzning xususiyatlarini tushuntirar ekan, Boburning ham aruz nazariyotchisi, ham aruzning go‘zal vaznlarida she’r bita olgan hassos shoir ekanini alohida e’tirof etadi.

Jadidlarning tadqiqotlari keyingi davr bobur shunoslik ilmining rivoj topishiga asos bo‘lib xizmat qildi. 1944-yili Moskvada P.Petrov “Boburnoma” tarixiy manba sifatida”, 1948-yili S.Aliyev “Zahiriddin Muhammad Boburning she’riy ijodiyoti”, 1949-yili S.Azimjonova “Umarshayx va Boburning Farg‘ona ulusi”, 1954-yili G.Blagova “Характеристика грамматического строя (морфологии) староузбекского литературного языка контса XB века по “Бабурнаме” mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladi.

Shundan so‘ng, o‘zbek va boshqa turkiy tilli respublikalar adabiyotida dissertatsiyalar soni orta boshladi.

Shuhrat HAYITOV,
filologiya fanlari doktori

OGOHLIK

“Ekstremistik mafkura va g‘oyalar ijtimoiy tarmoqlar, videoroliklar va adabiyotlarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish orqali jamiyatga, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda... Taqiqlangan diniy materiallarning Internet tarmog‘ida tarqalishining oldini olish bo‘yicha ishlar samaradorligi yetarli darajada emasligi bunday materiallarni saqlash va tarqatish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda”.

Shavkat MIRZIYOYEV
“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”

ONG KELAJAKNI BELGILAYDI



(1-maqola)

ENDI FRONT CHIZIG‘I YO‘Q

Bugun nafaqat O‘zbekiston, balki jahondagi boshqa davlatlar ham keng qamrovli xavfsizlik masalasi yechimi yuzasidan turli chora-tadbirlar ustida bosh qotirmoqda. Negaki, bugunga kelib, bu tushuncha yangi mazmun kasb etdi. Endi davlat tinchligi, farovonligi va taraqqiyoti hududiy yaxlitlik yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, jamiyatning ma’naviy-mafkuraviy holatiga, qadriyatlar tizimi hamda fuqarolar ongidagi barqarorlikka bevosita bog‘liq bo‘lib qoldi. Shu nuqtayi nazardan, “endi front chizig‘i yo‘q” degan so‘z tizginsiz tuyg‘ularga tayangan mubolag‘a emas, zamonaviy geosiyosiy voqelikning aniq ifodasi, deyish to‘g‘riroqdir.

Bugunga kelib axborot, ta’lim, madaniyat, din va yana birtalay ijtimoiy omillar vositasida inson ongi, jamoatchilik fikri hamda ma’naviy muhitni shakllantirish va boshqarish imkoniyati yanada osonlashdi. Kognetiv urush – inson ongi, idroki, fikrlash usuli va qaror qabul qilish jarayonini o‘zgartirishga qaratilgan maqsadli ta’sirlar majmuasidir. U klassik harbiy urushdan farqli ravishda, axborot, g‘oya, talqin, ramziy va psixologik usullar orqali amalga oshiriladi. Gibrid tahdid – bu bir vaqtning o‘zida bir nechta turdagi ta’sir va bosim vositalarini uyg‘un holda qo‘llash orqali davlat, jamiyat yoki muayyan guruhni beqarorlashtirish, zaiflashtirish yoki boshqarishga qaratilgan kompleks tahdiddir. Aslida, hanuz to‘xtamagan, kundan kun yangicha shakl va ko‘rinishlarda davom etayotgan bu xatarlar bilan yuzma-yuz kelmagan davlat ham, jamiyat ham yo‘q hisobi.

Global axborot makonida kuzatilayotgan ma’naviy-mafkuraviy barqarorlikka tahdid o‘ta jiddiy strategik xatardir. U xalq va inson ongini nishonga oladi, shu orqali jamiyatga ham, suverenitetga ham tahdid qiladi.

GEOMA’NAVIY TAHDID VA XAVFSIZLIK

Ongni zabt etish, bo‘ysundirish va boshqarishning turli usullari mavjud. Bunday usullarning barchasini yaxlit holda “geoma’naviy tahdid” atamasi bilan ifodalash mumkin.

Xalq, inson ongi, Vatan va suverenitet uchun muqarrar xavf tug‘diradigan geoma’naviy tahdidlar kurash hududiga avvalo axborot xuruji orqali kirib keladi. U muayyan geosiyosiy manfaatlarni ko‘zlab, qadriyatlar, qarashlar va tushunchalar tizimini o‘zgartirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda buzg‘unchi g‘oyalar “oddiy fikr” ko‘rinishida jamoatchilik ongiga singdirib boriladi. Natijada, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va an’anaviy qarashlarning ahamiyati susayib, jamiyatda ishonchsizlik, qutblashuv hamda ma’naviy bo‘shliq yuzaga keladi. Yoshlarda tanqidiy fikrlash yetarli bo‘lmagan sharoitda bu ta’sir yanada samarali kechadi.

Geoma’naviy axborot xurujining jamiyat barqarorligi va milliy birlik uchun xavfli oqibatlari bor ekan, unga qarshi tizimli yondashuv zarurati sifatida geoma’naviy xavfsizlik masalasi kun tartibiga chiqadi. Geoma’naviy xavfsizlik axborot xuruji va mafkuraviy tahdidlar sharoitida jamiyat hamda davlatning ma’naviy-mafkuraviy barqarorligini himoya qilishga xizmat qiladigan chora-tadbirlar tizimidir. U global axborot muhitida milliy qadriyatlarni, dinni, tarixni hamda dunyoqarashni tashqi va ichki ta’sirlardan muhofaza qilishni, faqat axborot sohasi bilan cheklanmay, ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va institutsional mexanizmlarni qo‘llashni ham nazarda tutadigan kompleks yondashuvdir.

Geoma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda faqat reaktiv himoya (tahdidli ta’sirga tezkor, ongsiz ravishda javob berish orqali himoyalanish, masalan, tanqid qilingan insonning darhol bahsga kirishib ketishi) choralari bilan cheklanib qolmaslik lozim. Chunki bunday tahdidlar aksar hollarda to‘g‘ridan to‘g‘ri bosim yoki ochiq chaqiriqlar bilan emas, balki ijtimoiy hayotning tabiiy sohalariga singdirilgan ta’sir mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bunday ta’sir ko‘pincha jamiyat tomonidan oddiy axborot, diniy chaqiriq, ma’rifiy tadbir, madaniy aloqa yoki ta’lim sohasidagi hamkorlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli, geoma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda tashqi g‘oyaviy ta’sirlar qanday yo‘llar orqali, qaysi sohalar vositasida va qay darajada amalga oshirilayotganini chuqur anglash talab etiladi.

TA’SIR MEXANIZMLARI

Geoma’naviy ta’sir mexanizmlari ichida inson ongi va jamoatchilik fikriga uzoq muddatli va barqaror ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan sohalardan biri ta’lim tizimidir. Ta’lim jamiyatning kelajakdagi intellektual qiyofasini, kadrlar salohiyatini hamda qaror qabul qiluvchi elita tarkibini shakllantiradigan strategik institut hisoblanadi.

Ta’lim sohasidagi tashqi ta’sir qisqa muddatli axborot reaksiyasi emas, uzoq davom etuvchi va tizimli jarayondir. Bu ta’sir ijtimoiylashuv, bilim standartlari, o‘quv dasturlari va akademik muhitni shakllantirish bilan amalga oshadi. Natijada, u jamiyat fikri va intellektual kun tartibiga bilvosita, ammo chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Agar mazkur jarayon muvofiqlashtirilgan holda tartibga solinmasa, mamlakat ichida xorijiy stipendiya, grant, til kurslari, akademik almashinuv dasturlari hamda ta’lim muassasalari ko‘magida muayyan tashqi ta’sir markazlarining bosqichma-bosqich kuchayishi ro‘y beradi. Bu esa tashqi ta’sirning institutsional shakli sifatida o‘quv-tarbiya jarayoni orqali yot dunyoqarashni shakllantirish, yangi standartlar, o‘zgacha bilim mezonlari va begona qadriyatlar tizimining joriy etilishiga olib keladi.

Shu ma’noda, ta’lim orqali ko‘rsatilayotgan ta’sirni “ertangi fikr va qaror qabul qilish muhiti”ni tayyorlashga qaratilgan strategik vosita sifatida baholash lozim. Chunki ta’lim sohasida shakllangan qarashlar va qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabat va siyosiy qarorlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur jarayon natijasida intellektual qaramlik, akademik kun tartibining tashqi markazlarga bog‘lanishi, milliy maktablar va ta’lim-tarbiya an’analarining zaiflashuvi hamda qadriyatlar transformatsiyasini qamragan tahdidlar yuzaga keladi.

Jamoatchilik kayfiyati va ongga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim yo‘nalishlardan yana biri madaniy diplomatiyadir. U “yumshoq kuch” strategiyasi doirasida festivallar, til kurslari, adabiy tadbirlar, kino va musiqa mahsulotlari namoyishi, grantlar, ijodiy dasturlar hamda madaniy markazlar ko‘magida amalga oshirilib, to‘g‘ridan to‘g‘ri bosim yoki majburlash usullarisiz jamiyat ongida emotsional moyillikni shakllantiradi. Natijada muayyan bir davlat, xalq yoki madaniy makonga nisbatan xayrixohlik, ishonch va ijtimoiy yaqinlik hissi yuzaga keladi. Ayrim hollarda madaniyat siyosiy maqsadlarga xizmat qiluvchi vositaga ham aylanib, “birlik”, “umumiy tarix” yoki “qadriyatlar mushtarakligi” kabi tushunchalar bilan muayyan geosiyosiy maqsadlarning mafkuraviy asosini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Din vositasidagi tashqi ta’sir ham aholi dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va ma’naviy qadriyatlariga bevosita daxldor bo‘lgani jihatidan, geoma’naviy tahdidlar tizimida eng ta’sirchan va uzoq muddatli omillardan biri hisoblanadi. Turli diniy infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash, xayriya va ijtimoiy yordam loyihalari, diniy ta’lim hamda ma’rifiy faoliyat bilan jamiyatda ishonch, ma’naviy yaqinlik va ijtimoiy legitimlikni shakllantirish mumkin, biroq geosiyosiy raqobat sharoitida aynan shu holat diniy sohani siyosiy va mafkuraviy manfaatlar uchun vosita sifatida qo‘llash xavfini ham oshiradi.

Din siyosiylashib, muayyan g‘oyaga, harakat yoki tashqi manfaatlarga xizmat qiluvchi vositaga aylangach, davlat va qonun ustuvorligi tamoyillari zaiflashib, jamiyatda huquqiy me’yorlar emas, muayyan diniy talqinlar birlamchi ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu esa davlat asoslariga nisbatan ishonchning susayishi, huquqiy ongning zaiflashuvi va ijtimoiy munosabatlarda qutblashuvning kuchayishiga olib keladi. Natijada radikallashuv jarayonlari tezlashib, konfessiyalararo ishonchsizlik, toqatsizlik, ijtimoiy keskinlik uchun ma’naviy-psixologik muhit shakllanadi.

Bugungi tashqi g‘oyaviy ta’sirlar bir martalik kampaniya emas, uzoq muddatli, tizimli va barqaror jarayon sifatida maydonga kirib kelmoqda. Shu bois, bunday tahdidlarni hamda ularni keltirib chiqarayotgan tashqi omillarni aniqlash va tahlil qilish juda muhim. Chunki tashqi ta’sir mexanizmlari qanday ishlayotganini bilmay turib, samarali himoya strategiyasini ishlab chiqish mumkin emas. Axborot bilan bog‘liq ta’sir mexanizmlarida quyidagi bir qator tashqi omillar bor.

Birinchi tashqi omil shuki, global axborot makonida amaliy jihatdan hududiy chegaralar mavjud emas. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqagan kontent davlat chegaralarini inobatga olmaydi. U qisqa vaqt ichida barcha mamlakatlarga kirib boradi. Aynan shu holat axborot ta’sirining tezkorligi va ommaviyligini keskin oshirib, uni nazorat qilish va himoyalanish mexanizmlarini murakkablashtiradi. Bunday holat ikkinchi tashqi omilga keng yo‘l ochadi. Ikkinchi tashqi omil g‘oyaviy ta’sirning kengayib borishi bilan bog‘liq. Bu ta’sir ko‘p hollarda suverenitet, milliy o‘zlik va tarixiy xotiraga nisbatan ishonchni susaytirishga qaratilgan axborot bosimida ko‘rinadi. Jamoatchilik ongida suveren davlatchilikni shartli, nisbiy yoki “kimningdir ta’sir doirasidagi makon” sifatida qabul qilishga undaydi. Bu esa muayyan davlat yoki mintaqaning davlatchilik modeli, tarixiy legitimligi va milliy o‘zligini shubha ostiga qo‘yadi.

Uchinchi tashqi omil sifatida global axborot maydonida media markazlar o‘rtasidagi tengsizlikni alohida qayd etish lozim. Radikalistik, ekstremistik, terroristik, ksenofobik, imperialistik va shovinistik g‘oyalarni ilgari surishga xizmat qiluvchi ayrim xorijiy ta’sir markazlari moliyaviy, texnologik va tashkiliy resurslarni yuqori darajada jamlagani bilan ajralib turadi. Masalan, “Al-Qoida” xalqaro terroristik tashkilotining elektron jurnali, ISHIDning tarmoqlangan media infratuzilmasi, shuningdek, ayrim mahdud yirik axborot tizimlari aniq maqsadga yo‘naltirilgan qat’iy narrativlar asosida kontent ishlab chiqarishda tezkorlik, ko‘p tilli auditoriyani qamrab olish, tarqatish infratuzilmasining kengligi va algoritmlar orqali ommalashtirish imkoniyatlari bilan ustunlikka ega. Bunday sharoitda global axborot oqimida tashqi manbalarning salmog‘i oshib, mahalliy axborot tizimlari uchun raqobat muhiti yanada murakkablashadi. Ayniqsa, resurs cheklovlari mavjud bo‘lgan milliy media markazlar auditoriya e’tibori uchun global platformalar bilan raqobatda qiyinchiliklarga duch keladi.

Global axborot muhitidagi yana bir tashqi omil platformalar algoritmining ishlash mantig‘i bilan bog‘liq. Aksar kishilarga ma’lumki, raqamli platformalar tahliliy yo ma’rifiy materiallardan ko‘ra, auditoriyada kuchli emotsional reaksiya uyg‘otuvchi kontentlarni tezroq ommalashtiradi. Ekstremistik g‘oya tashuvchilari esa shu xususiyatdan samarali foydalanadi. Natijada roliklar, ta’sirchan sarlavhalar, soddalashtirilgan shiorlar va qarama-qarshi obrazlarni o‘zida jo qilgan kontentlar internetda keng ommalashadi. Bundagi xavf ham shunda: huquqiy davlat tamoyillariga zid ravishda, diniy tushuncha va qarashlarni mutlaq ustun qo‘yayotgan media mahsulotlarning ommalashayotganidadir. Bunday kontentlarda qonun ustuvorligi emas, subyektiv diniy talqinlar “eng oliy mezon” sifatida ko‘rsatiladi. Oqibatda, diniy e’tiqodning manipulyativ talqin qilinishi va davlatchilik asoslariga qarshi yo‘naltirilishi ulkan muammolarni yuzaga keltiradi.

Tahlilchilarning fikriga ko‘ra, ayrim hollarda TikTok, Instagram Reels va YouTube Shorts kabi qisqa video formatlarining ta’siri to‘liq metrajli badiiy yoki hujjatli filmlardan ham kuchli bo‘lishi mumkin. Radikal va ekstremistik targ‘ibotda ham aynan shu formatlardan faol foydalaniladi. Xavfli g‘oyalar ko‘pincha “quvnoq”, “oddiy hayot haqiqati” yoki “shaxsiy tajriba” ko‘rinishida “yumshatilgan” holda taqdim etiladi. Natijada auditoriya bu kabi mazmunni darhol xavf sifatida qabul qilmaydi. Bu holat “yashirin radikallashuv” deb ataladigan mexanizmni yuzaga keltiradi va radikallashuvni yashirin, bosqichma-bosqich yuzaga chiqaradi.

QUTBLASHUV VA HUQUQIY ONG ZAIFLASHUVI

Yashirin radikallashuvni keltirib chiqaradigan kontentlarning keng tarqalishi jamiyatni bir qator salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Birinchidan, jamoatchilik ichida qutblashuv kuchayadi. Turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida murosasizlik ortib, bag‘rikenglik va muloqot madaniyati yo‘qolib boradi. Bir-birini onlayn haqorat qilayotganlar bunga yaqqol misol. Ikkinchidan, huquqiy ong zaiflashadi. Davlat institutlari, qonun va huquqiy tartibga nisbatan ishonch so‘nib, hissiyotlarga asoslangan subyektiv “hukmlar” ustuvorlik qila boshlaydi. Uchinchidan, radikal targ‘ibotning normallashuvi zo‘ravonlikka nisbatan ma’naviy cheklovlarni susaytirishi mumkin. Ayrim hollarda ekstremistik chaqiriqlar “adolat uchun kurash” yoki “majburiy chora” sifatida oqlanib, ijtimoiy ongda xavfli tendensiya shakllanadi. To‘rtinchidan, tanqidiy fikrlash va manbalarni tekshirish madaniyati shakllanmagan sharoitda axborotning mazmuni emas, balki uning “trend” darajasi va ommaviyligi hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Zamonaviy axborot makonida geoma’naviy tahdidlarning yana bir xavfli mexanizmi axborot manipulyatsiyasi ko‘magida jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatishdir. U ong boshqaruvidagi psixotexnologik yondashuv sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bunday ta’sir harbiy tajovuz yoki iqtisodiy bosimdan farqli ravishda, aholi kayfiyati, dunyoqarashi va qabul qilinadigan siyosiy qarorlarga bilvosita ta’sir o‘tkazishni maqsad qiladi.

Axborot ta’siri tashqi jihatdan bosim sifatida ko‘rinmasligi mumkin, biroq uzoq muddatda uning oqibatlari jamiyat barqarorligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Mazkur jarayonlarning amaliy namunasi sifatida Cambridge Analytica voqeasini misol keltirish mumkin. Bu holat raqamli muhitda ma’lumotlardan qay tarzda maqsadli manipulyatsiya vositasi sifatida foydalanish mumkinligini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Cambridge Analytica – Buyuk Britaniyada ro‘yxatdan o‘tgan, siyosiy konsalting va ma’lumotlar tahlili bilan shug‘ullangan kompaniya bo‘lib, uning faoliyati raqamli muhitda jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatishning yangi bosqichga chiqqanini namoyon etdi. 2013-yili ishlab chiqilgan mazkur ilova foydalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini test savollari orqali aniqlashga qaratilgan edi. Biroq o‘sha davrda testda ishtirok etgan shaxslar bilan cheklanib qolmasdan, ularning “do‘stlari” haqidagi ma’lumotlar ham avtomatik ravishda yig‘ib olingan. Natijada, taxminan ikki yuz yetmish ming foydalanuvchi testdan o‘tgan bo‘lsa-da, sakson milliondan ortiq akkaunt ma’lumotlari noqonuniy tarzda qo‘lga kiritilgan. Bu voqeaning geoma’naviy tahdidlar nuqtayi nazaridan ahamiyati shundaki, yig‘ilgan ma’lumotlar faqat tijoriy maqsadlarda emas, siyosiy targ‘ibotda ham qo‘llangan. Xususan, mazkur ma’lumotlar AQSH prezidenti Donald Tramp va 2016-yilgi prezidentlik saylovida ishtirok etgan senator Ted Kruzning saylov kampaniyalarida manzilli tarzda siyosiy targ‘ibotni individuallashtirish uchun ishlatilgani haqida ochiq ma’lumotlar mavjud.

Zamonaviy axborot makonida ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va auditoriyaga manzilli ta’sir ko‘rsatish usuli jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalardagi algoritmlar kontent tarqalishini avtomatik ravishda boshqarib, ko‘pincha emotsional, bahsli va keskin reaksiya chaqiruvchi materiallarni ustuvor holda ommalashtiradi. Bu esa axborot muhitida oqilona tahlilga asoslangan muhokamalar o‘rnini hissiy munosabatlar egallashiga olib keladi. Shu sharoitda mikro-targeting va psixografik profillash texnologiyalari foydalanuvchilarning internet muhitida namoyon qiladigan onlayn xulqi va jamoat ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalarga aylanmoqda.

Mikro-targeting – raqamli platformalar orqali to‘plangan ma’lumotlarga tayangan holda, axborot, reklama va targ‘ibot xabarlarini keng auditoriyaga emas, muayyan shaxs yoki tor guruhlarga moslab yetkazish usulidir. An’anaviy ommaviy reklamada barchaga bir xil xabar taklif etilsa, mikro-targetingda har bir foydalanuvchiga uning qiziqishlari, ehtiyojlari va psixologik holatiga mos axborot taqdim etiladi. Ushbu texnologiya foydalanuvchining “raqamli izlari”ga – layklar, izohlar, ko‘rilgan video va o‘qilgan materiallar, obunalar, qidiruv so‘rovlari va onlayn faollik vaqtlariga tayanadi. Bu ma’lumotlar umumlashganida, shaxsning onlayn xulqiga oid raqamli portreti shakllanadi. Shu asosda foydalanuvchining demografik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, uning qadriyatlari, qo‘rquvlari, emotsional moyilliklari va qaror qabul qilish uslubi haqida taxminiy xulosalar chiqariladi. Aynan shu jihat mikro-targetingni axborot ta’siriga asoslangan psixologik texnologiyaga aylantiradi.

Psixografik profillash inson ongini axborot ta’sirining markaziy obyekti sifatida ko‘radi. U mikro-targeting texnologiyasi bilan uyg‘un ishlaydi. Ya’ni avval auditoriya ma’lum psixologik belgilar asosida guruhlarga ajratiladi, keyin esa har bir guruh uchun alohida axborot ssenariylari ishlab chiqiladi. Bu texnologiyaning qisqa video, mem, shior, infografik materiallar, maqsadli reklama yoki manipulyativ postlar ko‘rinishidagi turli formatlari mavjud. U asosida yaratilgan har bir kontent tashqi jihatdan neytral yoki “oddiy fikr” sifatida taqdim etilsa-da, mazmunan muayyan qaror yoki qarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihati bilan psixografik profillash inson ongiga yashirin ta’sir ko‘rsatishning texnologik asoslaridan biri sifatida geoma’naviy tahdidlarning zamonaviy shakliga aylanadi.


Bugungi kunda soxta akkaunt va sahifalar yaratish, muayyan auditoriyalarga mos kontent ishlab chiqish, maqsadli reklama joylashtirish hamda platformalarning targeting mexanizmlaridan foydalanib jamiyatdagi bo‘linish nuqtalarini kuchaytirishga urinishlar qayd etilayotgani, “Facebook”da bunday kontentlar foydalanuvchilari yuz millionlab adadni tashkil etayotgani haqidagi ma’lumotlar bu amaliyotning keng qamrovi va tizimli xarakterini ko‘rsatadi.

Algoritmlar va kontent muhiti ijtimoiy inqirozga olib kelishi mumkin. Bunga Myanma voqeasi misol. Facebook asosiy axborot manbasiga aylangan bu mamlakatda aynan shu platforma nafratga yo‘g‘rilgan targ‘ibot va tizginsiz dezinformatsiya manbayiga aylanishi natijada 2017-yili Rohinja aholisiga nisbatan keng ko‘lamli zulm sodir etildi. Minglab inson halok bo‘lib, yuz minglab kishi o‘z uy-joylarini majburan tark etdi. BMT hisobotlari hamda qator xalqaro tahlillarga ko‘ra, Facebook platformasi Rohinja musulmonlariga qarshi nafrat targ‘ibotida muayyan rol o‘ynagan. Bu, Cambridge Analytica voqeasi bilan umumiy jihatlarga ega. Har ikki holatda ham raqamli muhit orqali auditoriya ongiga yashirin ta’sir ko‘rsatish va ijtimoiy muhokamani manipulyatsiya qilish mexanizmlari ishlatilgan.

Raqamli platformalar muhitida manipulyativ ta’sir o‘tkazishning yana bir keng tarqalgan shakli sifatida muvofiqlashtirilgan soxta faoliyat – Coordinated Inauthentic Behavior (CIB – internet va ijtimoiy tarmoqlarda bir guruh akkauntlar tomonidan oldindan kelishilgan holda, o‘zining kimligini va niyatini yashirib, jamoat fikriga ta’sir o‘tkazishga qaratilgan soxta va muvofiqlashtirilgan profillar va sahifalar faoliyati) alohida o‘rin tutadi. Meta (Facebook va Instagram) kompaniyasi turli yillarda turli davlatlar bo‘yicha CIB tarmoqlarini fosh etish va ularni bloklashga doir bir qator rasmiy hisobotlarni e’lon qilib keladi. Ularda soxta akkaunt tarmoqlari orqali auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish, kontentni sun’iy ravishda ommalashtirish, ijtimoiy muhokamani buzish yoki muayyan siyosiy pozitsiyani “ommaviy qo‘llab-quvvatlanayotgandek” ko‘rsatish mumkinligi ta’kidlanadi. Bunday amaliyotlar axborot muhitida real ijtimoiy kayfiyat bilan sun’iy yaratilgan tasavvurlar o‘rtasidagi chegarani olib tashlaydi. Bu holat raqamli muhitdagi manipulyativ ta’sir faqat tashqi faktorlar emas, ichki siyosiy maydon doirasida ham amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Abdulhamid MUXTOROV

KOBUL AZIMATI



Boshlanishi 1-sahifada.

HIROT TA’RIFINDA

Hiriyning havosi g‘oyat latif, dag‘i ajibdur. Ammo fe’li tez. Bir lahzada changli quyun shaharni iskanjaga oladi. Shunday kezlarda ayollar ro‘molini mahkam changallaydir, erlar qadifasini boshga tortadir. Bu iqlim odamlari shuning uchun bu choyshabsifat matoni yelkadan qo‘ymas. Bir qarasang, dasturxon o‘rnida, bir qarasang, joynamoz... Boshga salla kabi o‘raganlari-da, bisyordur.

Ore rostkim, qiz-juvon bu yerda chandon xushro‘y... Garchi boshdan oyoq chimmatga chirmalgan, yuzlariga niqob tutib yurishgan esa-da... yolg‘iz ko‘zlari, mungli va ayni chog‘da allaqanday viqorli nigohlari kishini oniy lahzada maftun etishga qodir... Ayollarga uzoq qarab turish mutlaqo mumkin emas! Ro‘parangizdan kelayotgan bo‘lsa, bir ko‘z tashlab qo‘yish, hay, mumkin. Ammo o‘tib ketgach, o‘girilib qarash – gunohi azim... Biroq nega bu yerning poshikastalari g‘arib ko‘ngilni allanechuk rom ayladi?

Hirotning girdo-girdiga bir ulug‘ tog‘ voqe bo‘lubdurkim, el ani Ko‘hi Safed ataydur. Voha shundin enuvchi Herirud daryosidan suvlaydur. Eli xotirjam va sertakalluf, forsiy, pushtuniy so‘zlamak rasmdur. Agarchi turkiylar-da topilurkim, tilini unutqon... Mevasi farovon va bisyor xo‘bdur. Ko‘chalarda suvlig‘-suvlig‘ sabzi sharbati sotilur. Mayizi yirik va xushta’mdur, ammo urug‘i ulkan. Tag‘in anchadan beri ko‘rmaganim – shotut qoqisi ham ko‘p. Bosh barmoq uzunligicha kaboblari va ham Kobuliy o‘zbek palovi mazalig‘. Alardin o‘zgasi hindiy yo pushtuniy nimarsalar... Yumurtqaga pamildoru va ham so‘g‘on qo‘shib qovurmak odatdur. Nonlari turli-turli, biroq bizning lochira kabi bir turi borkim, bisyor totlig‘. Suvi mijozimga xo‘b o‘ltirdi. Choylari xo‘b sabz bo‘lur, qora choyi qizilga yaqin. Harchand Kobulda va yo Hiriyda bo‘lsinkim, el zinhor qalin kiyinmas. Qor-u yomg‘irda bir xil. Ayol-u er bir-biridan uzoq yuradir. Vale, qo‘lni qo‘lga berib, dilovarlik qilib yurg‘an erlarni xo‘p uchratdim. Yemak va ichmakda betakalluf bo‘lg‘an esam-da, eng ko‘p musiqiydan qiynaldim. Tarona va dilrabolarsiz har shaharki bor, jonsiz jismdur.

Qo‘rg‘oni baland yerda voqe bo‘libdurki, “Qal’ai Ixtiyoriddin” atalur. Miloddan burung‘i 330-yilda Iskandari Maqduniy davrida barpo bo‘lgan. Qariyb ikki ming yil davomida bir necha daf’a vayron etilgan esa-da, g‘aznaviy, saljuqiy, g‘uriy, temuriy, safaviy sultonlarga qo‘rg‘onlik qilgan.

Zamonkim, Amir Temur Ko‘ragoniy Haq taolo dargohiga rixlat aylagan yillarda Shohrux Mirzo poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko‘chirib, qal’ani harbiy istehkom etdi. Ayni chog‘da xazinaxona, qorovulxona, xos xonalar va ham bir necha zindon ushbu qo‘rg‘onda ko‘rilur.

Tarix 1469–1506-yillarda, Sulton Husayn davrida Xuroson mamlakati ayni shu saroydan tushadurg‘on har farmonga bo‘yin sungan. Davlatni idora etmakka doir har hujjatga shu joyda sultonning muhri bahaybatlari bosilgan. Mundin tashqari, qal’a Mir Alisher Navoiy boshchiligidagi nazmiy bazmlarga manzil bo‘lgan. Bu yerda teatrmonand bir joy borkim, unda qizg‘in-qizg‘in mushoiralar o‘tkazilgan, ilmi aruz, ilmi tasvir va ham tasavvuf bahslari avjlangan.

Kamina qulingiz ham shu yerning sahnasini beijozat va ham bexijolat zabt etib, muborak hazratlarni tasavvur aylagancha, bir juft g‘azal o‘qimak baxtiga muyassar bo‘ldi.

“Husni ortar yuzda zulfin
anbarafshon aylagach,
Sham’ ravshanrak bo‘lur,
torin parishon aylagach”.

“TURKIYDA SHUHRATI KO‘PRAK ERDI...”

Mavlono Lutfiyga yetmak ko‘p mushkuldurur. O‘zbekistondagi navoiyshunos, boburshunoslardan so‘radim. Muborak turbatlari Dehikanor qishlog‘ida, dedilar. Hozir u yer Nangobod deb atalur, deganlar ham bo‘ldi. Ammo hech bir haydovchi u yerni topa bilmadi.

Ancha avval, Bobur nomidagi xalqaro fond mas’ullari mavlononi ko‘p yo‘qlagani, yangi qabrtosh qo‘ygani va hatto, bir yili ustidagi koshinkor ayvoni o‘g‘irlab ketilgani haqida eshitgandim.

Muborak qabr qaydaligini bilmak ilinjida Hirotdagi madaniy obidalarga javobgar idoraga bordik. Bu yerning rahbari uzun soqolli, oppoq dastorli, ko‘zoynak taqqan nuroniy bir olim ekan. U kishi bizni xushmuomalalik bilan qarshi oldi. Devorda turli tarixiy binolar, naqshinkor ustunlar, tabarruk qadamjolarning suratlari osilgan. Xona kitob-u jurnal-u gazetga to‘la. Ham barq (elektr), ham gaz yordamida isitadigan pech vazmin va o‘ychan ustodga qaratilgan. Eshik oldida yana bir ustol-u ustul. Unda kompyuter va printer. Ammo ijozatnomani qo‘lda yozib, printerda nusxa oldilar...

Maqsadga ko‘chdik. U kishi mavlono Lutfiy haqida hech qachon eshitmagani haqida aytgandek bo‘ldi, chamamda. Tarjimonimga qayta-qayta murojaat qilib, mendan Lutfiy haqida nimalar bilishimni so‘radi. Gaplarimni ming taassuf va yuz hayrat bilan yon daftarchasiga yozib olarkan, bosh chayqab qo‘yaverdi... Keyin Navoiy haqida so‘radi: “U kishi sizlarga kim bo‘ladi? O‘zbekistondan kelganmi?”

Hazratim haqida nima bilsam, barini aytdim: “Qaydaki, temuriy bo‘lsa, bizga bobo. O‘zbekistonda hech kim Alisher Navoiychalik ko‘klarga ko‘tarilmagan”. Ishxonamiz joylashgan bino – muzey, ko‘chalar, teatrlar, kino uylari, metro bekatlari, hatto, eng yirik viloyat ham Navoiy nomida atalishi u kishini hayratga soldi. Ehtiyot shart, hazratga haykallar tiklangani, suratlar chizilgani haqida lom-mim demadim... Tag‘in savol berdi: “Qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast?” (Navoiy haqida necha yoshdan beri bilasan?) Tag‘in javob ayladim: “Ruh ermas erdi tang‘a payvast!” (Tug‘ilishimdan avval ham “Navoiy-Navoiy!” deyishardi!)

Shu tariqa, bizda maktab-u oliy ta’lim darsliklari Alisher Navoiydan boshlanib, Alisher Navoiy bilan tugashini tushuntirgan bo‘ldim. G‘oyat mutaassir bo‘lib, ko‘zga yosh olishning nari-berisida qoldi... Erinmagan banda ekan, yana so‘radi: “Bu yerlarga Navoiy deb kelibsan, Lutfiyda ne ishing bor?” Bu sersavol janob har qancha zerikkan, ilmga tashna, buning ustiga vaqti ko‘p bo‘lmasin, meni tushunishi kerak edi. Chunki har soniyam g‘animat. Ammo “eshagim suvdan o‘tguncha, tog‘a deb turish”ga majbur bo‘ldim: “Mavlono Lutfiy, bilsangiz, hazrat Navoiyga ustoz hisoblangan. Shu yerga kelib, u kishini ziyorat etmay ketsam, hurmatsizlik bo‘ladi...” Soqolini changallagancha miriqib bosh chayqadi. O‘rnidan turib, hurmatli mehmonlari uchun asrab qo‘ygan xurmolarini javondan olib, bizga tutqazdi. Ochig‘i, tezroq boray deb, nonushta qilmay chiquvdim – o‘ziyam moyday ketdi.

Keyin “tanish-bilish”ni ishga solib, biz so‘ragan manzilni aniqlab, qog‘ozga yozib berdi. Nihoyat, yo‘lga tushdik.



Ko‘ngli tilagan murodg‘a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,
Bu ikki muyassar o‘lmasa olamda,
Boshni olib bir sorig‘a ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad BOBUR

Safarda har bir chaqa laziz-u aziz bo‘lgani uchun chog‘roq ulov – “reksha” tutdik. Baland-u past, qing‘ir-qiyshiq, o‘ydim-chuqur yo‘llar oralab, tuprog‘-u loy kechib, ko‘rgan-bilgandan so‘ray-so‘ray, oxiri, bir qabristonga yetdik. Shahzoda Qosim turbati asosiy mo‘ljal bo‘ldi. Ikki yonda paxsa devorlar, tor yo‘laklar o‘rtasidan o‘tgan shildiroq ariq, ahyon-ahyonda uchrab turuvchi qadimiy tutlar, tomsuvoq uylar, yuz yillik vayronalar, uzoqdan ko‘rinib turuvchi mo‘ysafid tog‘lar, biyday dala, orombaxsh ko‘chalar, echki-yu uloqlar, qishloqi bolalar... bularning barchasi kishini maroqlantiradi, moziyga boshlaydi. Nahotki, shu ko‘chalarda Lutfiy bobomiz yurgan, latif g‘azallar shu kabi uylarda yozilgan?

Qishloq hozir “Shodijon” deb nomlanarkan. Qabristonga kirib, hayajondan o‘zimni tiya olmadim. Qani, hozir mavlono hayot bo‘lsa-yu, bobosini sog‘ingan nabiradek quchog‘iga talpinsam! To‘g‘risi, hazrat Alisher Navoiy ziyoratida ko‘nglimda ko‘p va xo‘b iymanish-u tortinish bor erdi. Lekin bu yerda go‘dakdek yayradim va ham allanechuk xursand, allanechuk erkalikka moyil bo‘lib qoldim...

Mavlononing ruhi poklariga Qur’on tilovat qilgach, g‘oyibona suhbat qurib, ul zoti muborak yozgan latif g‘azallardan o‘qidim...

“Ayog‘ingga tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: charog‘ tubi qarong‘u...”

IKKI MING BIRINCHI KO‘CHAT

Ertasi kuni to‘qqizinchi fevral bo‘ldi. Butun dunyo turkiylari Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligini tantanavor ruhda, bayramona shukuhda nishonlayapti. Barcha bir-biridan chiroyli guldastalar tuzib, ulug‘ mutafakkirning muazzam haykallari poyiga shoshadigan kunda mazkur safarim hisobida yettinchi daf’a “Musallo”ga yo‘l oldim. Aytgancha, bu yerlarda tug‘ilgan kunni nishonlash rasm emas. Chapak chalish, qabr boshiga gul qo‘yish, qo‘shiq aytish, o‘yin-kulgi rasman taqiqlangan.

Avval bir tujjordan ikki enlik suv shimadigan mato xarid qildim. Keyin supurgi izlashga tushdim. Qurg‘ur hech topilavermagach, bir do‘kon eshigi yonida yotgan supurgiga chang solib, “o‘laman Sattor, shuni menga sotasan”ga tushdim. Do‘kondor yigitcha bu matohni nima qilishimga qiziqsindi. Hazrat Navoiy maqbarasiga jorubkashlik qilaman, deganimda ikki qo‘lini ko‘tarib, “Supurgi senga tekin, qarindosh! Men maymanalik o‘zbekman”, dedi. Undan chiqib, ko‘chat izladim. Baxtimdan o‘rgilay, shundog‘ “Gavharshodbegim bog‘i” biqinida ko‘chat bozori bor ekan. Bog‘ qo‘riqchisi turqi-tarovatim, iljayib turishim va qo‘limdagi ashyolarga shubhali qarab qo‘ygach, yettinchi marta hujjatimni so‘radi. Ko‘rsatdim. Kirdim. G‘udranib-g‘udranib, belkurak topib berdi. Shu tariqa, Amudaryoning u tomoni-yu bu tomoni bosh qo‘shib, ushbu bog‘ga ekkan ikki ming tup ko‘chatlar yana bittaga ko‘paydi... Yetkazganiga shukur!

Majmuaga kirish juda qiyin. Mahalliy o‘zbeklar uchun ham ruxsatnoma kerak. Endi buni kim sug‘orarkin, deb o‘yga tolib turganimda, yomg‘ir sharros quyib yubordi. Xudo mehribon!

Tez orada yetib kelgan boshqa o‘zbeklar bilan maqbarani supurib-sidirib, shift-u burchak-burchaklarga o‘rnashgan chang-u g‘ubordan forig‘ etib, o‘rgimchak to‘rlaridan tozalab, muborak marmar toshni yaltiratib qo‘ydik. Tag‘in Qur’on tilovat qilib, ohista ortga qaytdik...

QAYDASAN, KOBUL?

Hirotdagi tayyoragoh sori yuzlandim. Yomg‘ir hamon avjida. Uchish yo‘lagi misli ko‘l. “Bir-bir ne deyin boshdin ayog‘i”m jiqqa ho‘l. Parvoz qariyb uch soatga kechikdi. Ustimdagi ustimda quridi.

Kobulga qo‘nganimizda qosh qoraygandi. Guppa-guppa qor tashlab turibdi. Bu yerda o‘zbek tilidan dars beruvchi ustozlardan biri qo‘yarda-qo‘ymay uyiga boshladi. O‘rkach-o‘rkach adirlar qamal qurgan qishloqning keskin balandlab ketadigan va xuddi shunday pastlab qoladigan ko‘chalari bo‘ylab yayov ketyapmiz... Laylakqor, sovuq va qorong‘u yo‘llar, qo‘rqinch jarliklar... Havo nihoyatda sifatsiz, tutunmi, ko‘mir hidimi suzib yuribdi. Ko‘z-u burun-u dumog‘ aralash achishib ketadi. Tuf desangiz, tomoqdan qora chang oppoq qorga tushadi...

Beixtiyor “Boburnoma”dagi tasvirlar-u voqealar yodimga qo‘nadi. Butun boshli qo‘shin bilan sarson-sargardonlikda, yom-g‘ir-u qor demay, osoyishta manzil-u makon izlab tentirash azobini tanamda his etgan bo‘laman...

“Yuz javr-u sitam ko‘rgan,
ming mehnat-u g‘am ko‘rgan,
Osoyishi kam ko‘rgan
mendek yana bir bormu?”

Cho‘qqidagi chog‘roq uyda kelishim sharafiga pech yoqibdilar. To‘rda turgan onaxon kirishim bilan ro‘molini yuziga tortib, teskari o‘girilib oldi. Bu yerda ayollar notanish erkaklarga hatto ovozini ham eshittirmasligi shart ekan. Mezbon volidasiga meni tanishtirdi. Aytishicha, onaxon ko‘plab laparlar, xalq qo‘shiqlari va hech qayerda uchramaydigan o‘zbekcha iboralarni yaxshi bilarkan. Bu yerlarda har qancha mushkul bo‘lmasin, o‘zbek tilini farzandlariga o‘rgatib, tilni saqlab qolayotgan bu kabi onaxonlar kamdan kam topilarkan. Xullas, o‘zbek tilining ko‘zga ko‘rinmas jonkuyarlaridan biri bilan tanishdim. Ammo gaplashish qayoqda deysiz.

Har qancha o‘tin yoqilmasin, uy men uchun sovuq tuyulaverdi. Yetti qavat o‘ranib olganman. Mezbonlar esa yupqa kiyimda bemalol o‘tirishibdi. Shu paytga davur sovuqqa chidamli shaxs sifatiga elga ma’lum-u mashhur edim. Shuhratimga qurum qo‘ndi.

“UNUTMOG‘IL YANA BU NOMUROD BOBURNI...”

Ertasi kuni “Bog‘i Bobur” sori qadam urdim. Yo‘l bo‘yi qoyalarga tirmashgan uylarga ko‘zim tushdi. Nihoyat, manzilga yetdim. Kirish badalini berdim. Har kelganning ismi-sharifi, tazkira raqami yozilarkan. Andijonda ko‘rganim – “Bobur bog‘i”dagi kabi zinalar boshlandi. Uch yil avval borganimda, ramziy qabrni ko‘rib, asliy qabrni ziyorat qilishni orzu etgandim.

“Xush ulki, yona muborak yuzungni
ko‘rgaymen,
Yuzum bila qadaming gardini
supurgaymen...”

Ushbu ko‘rkam bog‘ “Shir darvoza” tog‘i etagida voqe bo‘libdur. Bu yerda Bobur zamonida tiklangan “Ark” qal’asi ham bor. U hozir “Bolohisor” deyilarkan. Hazratimiz ham bu qal’ani rosa kiftini keltirib maqtagan. Yillar o‘tib, u Boburning o‘g‘li Komron Mirzo tomonidan qayta qurilgan. Bu yer Bobur hazratlari dafn etilguniga qadar “Qadamgohi Hazrati Rasul” deb atalgan.

Kiraverishda qadimiy karvonsaroy qad rostlagan. Hozir uning bir qismi qo‘riqchilar qarorgohiga aylantirilgan.

Ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilda o‘zi asos solgan ulug‘ salta-natning poytaxti bo‘lgan Agra shahri (hozirgi Hindiston)da olamdan o‘tgan va dastlab o‘sha yerda dafn etilgan.

“O‘lum uyqusig‘a borib jahondin
bo‘ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do‘stlar,
ko‘rgasiz uyquda...”

Keyinchalik, vasiyatiga ko‘ra, Kobuldagi mazkur bog‘ga ko‘chirilgan. U o‘z qabrini ortiqcha hashamdan xoli, ochiq osmon ostida bo‘lishini istagani uchun hozirgacha maqbara qurilmagan. Shunga qaramay, vorislari Jahongir va Shoh Jahon qabr atrofini qimmatbaho marmar devor bilan o‘rab, yodgorlik o‘rnatganlar.

Bog‘ sokin, daraxtlari bisyor, terskay-terskayda qor uyumlari... Yuqorilaganim sari havo sovib borgandek bo‘ladi. Qarshimdagi ulug‘vor tog‘larga havas bilan termulaman. “Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbati” bilan bu yerlar qanday jannatmonand go‘shaga aylanishini xayol qilaman. Biroz yuqorilayman, to‘xtayman, satr aytaman:

“Sog‘inmas jannat ul-ma’voni Bobur,
Aning ko‘nglida to ma’vo qilibsen”.

Nihoyat, buyuk shoh va shoir, dilbar shaxs, jahon e’tirof etgan sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur mangu qo‘nim topgan joyga yetdim...



Bu manzilda ulug‘ sarkardaning yaqin qarindoshlari – opasi Xonzodabegim, birinchi qizi Faxr-un-Nisso, kichik o‘g‘li Hindol Mirzo, nabirasi Ruqiya Sulton begim, barchaga mashhur “Humoyunnoma” asari muallifi Gulbadanbegim, Humoyun Mirzoning o‘g‘li – Mirzo Muhammad Hakim, shuningdek, Shoh Abdul Maalilar mangu qo‘nim topgan...

Tarixiy hujjatlarga ko‘ra, 1543–1606-yillarda Boburning nabirasi Jaloliddin Muhammad Akbar mazkur bog‘ni o‘rab, yangi ko‘chatlar ekish va yanada ko‘rkam qilishni buyurgan. Keyinchalik bu xayrli ishni uning o‘g‘li Nuriddin Jahongir Salim davom ettirib, yanada go‘zal bog‘ bo‘lishi uchun o‘z hissasini qo‘shgan.

XX asr oxirida bog‘ jamoat xiyoboniga aylantirilgan va turli tashkilotlar tomonidan obodonlashtirilgan. Bu yerdagi xodimlar ancha xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, qariyb ellik yil davom etgan urushlar natijasida bog‘ butunlay vayron etilgan. Nihoyat, 2001-yili Homid Karzayning vaqtinchalik hukumati sharofati bilan atigi besh yil ichida Bobur bog‘i Tiklash va parvarishlash instituti tomonidan tarixiy hujjatlar, jahon muzeylarida saqlanayotgan suratlar va video tasvirlarga tayanib qayta tiklangan. “Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, daraxt va gul ko‘chatlari aslicha ekilgan.

“Xating bila yuzungu kokulung sening,
ey jon,
Biri – binafsha, biri – yosuman,
biri – rayhon”.

Bu ishlar uchun o‘sha payt 80,5 million AQSH dollari sarflangan. Qayta tiklash ishlari 2017-yilda nihoyasiga yetgan.

Ziyorat so‘nggida Zahiriddin Muhammad Bobur qabri yonida Qur’on tilovat qilib, benazir g‘azallaridan o‘qidik.

“G‘urbatg‘a soldi charx meni
yuz jafo bila,
Yod ayla men g‘aribni gahi duo bila”.

Bu yerga kelishimdan xabar topgan o‘zbeklar aniq vaqtni belgilab, yig‘ilishib, qo‘llarida supurgi va ko‘chatlar bilan kelishdi. Buyuk bobomiz qo‘r bergan bog‘ga barchamiz bir el-u bir dil bo‘lib, ko‘chat ekish baxtiga muyassar bo‘ldik...

Shahriyor SHAVKAT.
Hirot – Kobul

HAYRAT



BOBURONA DAQIQA

“Boburnoma” turli yosh, turfa vaziyat, yilning har xil fasllarida qayta va qayta o‘qib-uqiladigan, zarurat yuzasidan ko‘chirmalar olib, ayni damda boshqalarga o‘qish uchun tavsiya etiladigan mukarram va muazzam kitoblardan biridir. Boburning haqqo‘yligi, mardligi va saxovatini, o‘zining butun ichkarisi va tashqarisini benihoya oshkora, boburona rostlik bilan yozganini o‘qigan odam hayratga tushadi.

Kitobda Bobur nazaridagi kunlik vaqtning mitti o‘lchovi uchun tanlangan asos yozilgan o‘rinni o‘qib, xayolim asrlardan asrlarga ko‘chdi. Go‘yo Bobur poyida paydo bo‘ldim. Nega? Bugun biz kunlar tez o‘tayotgani, nafas olish uchun vaqt yetmayotgani, odamlar hech narsaga ulgura olmayotgani va shunga o‘xshash bir olam g‘av-g‘olardan nolib yozg‘iramiz. Bular yoniga bundan yarim yo bir asr oldin o‘tgan odamlarning salobati va bugungi oltmish-yetmishboylarning nisbatan yosh ko‘rinishi hamda Yerning o‘z o‘qi tegrasida aylanishining tezlashganiga tegishli taxminlar qo‘shiladi. Holbuki, olam o‘z holicha aylanib turibdi, har kim o‘z holicha vaqtini, tashvishlarga ko‘milib umrini o‘tkazib yuribdi. Ehtimol, uzundan uzun, umridan uzun, asrlardan uzun orzularga, go‘yo bu olamda abadiy yashab qoladigandek cheksiz orzu-havaslarga berilish – balki ana shu omillardir vaqtning tez o‘tayotganiga sabab? Yaratgan biladi.

“Boburnoma”ning oxirrog‘ida bir kecha-kunduz o‘lchovi, bir soat ichidagi daqiqalarga doir muhim gap bor: “Nechukkim, bizning viloyatlar istilohida kecha-kunduzni yigirma to‘rt qism qilibturlar, har qaysisini bir soat debturlar va har soatni oltmish qismat qilibturlar, har qaysisini bir daqiqa debturlarkim, bir kecha-kunduz ming to‘rt yuz daqiqa bo‘lg‘ay. Daqiqaning miqdori taqriban olti qatla “Fotiha”ni “Bismilloh” bila o‘qug‘unchadurkim, bir kecha-kunduz sekkiz ming olti yuz qirq navbat “Fotiha”ni “Bismilloh” bila o‘qug‘uncha bo‘lg‘ay”. O‘qidim. Bobur aytganicha bor. Bu haqiqat odamni hayajonga soladi. Qarang, bundan besh asr muqaddam hazrati Bobur bir daqiqada “Fotiha”ni “Bismilloh” bilan qancha vaqtda o‘qigan bo‘lsa, bugun biz ham taqriban shuncha vaqtda o‘qir ekanmiz. Nazarimda, tashvishlar, vahimalar, g‘avg‘olar, g‘alvalar, ig‘volar, g‘iybat va g‘urbatlar – mana shular vaqtning zavoli.

Kunlik vaqt o‘z holicha, besh asr avval ne ahvolda bo‘lsa, tasavvurimcha, bugun ham taxminan shu holda. Ammo undan foydalanish usullari boshqacha; uzoqni yaqin qilish yo‘llari o‘ylab topildi. Haddan tashqari olis bo‘lib tuyuladigan, oylab piyoda yo‘l yuriladigan ummongacha ham uchoqlarda bir necha soatda yetib boriladi. Zero, insonga aql ne’mati vaqtdan unumli foydalanish, o‘z vujudiga nazar solish, nafs qutqusini jilovlash, ko‘ngil ko‘zini g‘ubordan tozalash va shu kabi ko‘plab ezgu amallar uchun in’om etilgandir. Abadiyatga nisbatan inson umri “o‘ngdan so‘lga boqqancha” yoki bir kiprik qoqqancha fursat.

Demak, odam umrini g‘animat bilishi, vaqt tezligidan nolimasdan sababiyatni, aybni o‘zidan izlashi kerak. “Boburnoma”dek muazzam kitoblar hikmati bizga hayot jumboqlarini anglashga yordam beradi.

Bahodir NURMUHAMMAD

TALQIN

BIR RUH – IKKI DAVR

Tarix oddiy voqealar ketma-ketligi emas. U millat tafakkurining uzluksiz harakati, bir davrdan ikkinchisiga o‘tadigan ma’naviy jarayondir. O‘zbek tafakkuri tarixida ham shunday uzluksiz ma’naviy yo‘l bor. Bu yo‘l bir tomonda davlatchilik va mas’uliyat, ikkinchi tomonda ma’rifat va ong bilan belgilanadi. Bir qarashda o‘zaro uzoq tuyulgan ikki davr: Bobur zamoni va jadidlar davri, aslida, shu bitta ruhiy oqimning turli bosqichlaridir. Ular orasida asrlar bor, ammo maqsad bir – millatni asrash, inson qadrini saqlash va kelajakka umid qoldirish.

Bobur davrida bu tafakkur hokimiyat orqali namoyon bo‘ldi. Davlat boshqaruvida vijdon, adolat va ma’naviy mas’uliyat mezon sifatida ko‘rildi. Jadidlar davrida esa xuddi shu ruh boshqa shaklda – maktab, matbuot, ma’rifat va jamoat ongi orqali namoyon bo‘ldi. Ya’ni, hokimiyat o‘zgardi, usul almashdi, ammo mohiyat saqlanib qoldi.

Bugun “Uchinchi Renessans” degan tushuncha aynan shu tarixiy tadrijga tayanadi. U asrlar davomida shakllangan ma’naviy tafakkurning navbatdagi bosqichidir. Demak, bugungi taraqqiyotni to‘g‘ri anglash uchun o‘sha ruh qaysi ildizdan oziqlanganiga ham qarash zarur. Shu ma’noda, Bobur tafakkuri va jadidlar harakatini birga o‘rganish bugungi taraqqiyot g‘oyalarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

MA’RIFATLI HOKIMIYAT TAFAKKURI

Zahiriddin Muhammad Boburning davlatchilik tafakkuri faqat shamshirga emas, aql va vijdonga tayangani bilan ajralib turadi. Bobur uchun hokimiyat g‘alaba ramzidan ko‘ra javobgarlik mezoni edi. Shu bois, u o‘z faoliyatini anglashga va xatolardan xulosa chiqarishga intildi.

Bu yondashuv “Boburnoma”da Samarqand voqealari orqali juda aniq ko‘rinadi. Bobur Samarqandni qo‘lga kiritganini yozar ekan, uni saqlab qololmaganini tashqi xiyonat yoki taqdirga yuklamaydi. Aksincha, u mag‘lubiyat sababini ochiq tan oladi: “Men Samarqand olg‘onda, o‘n to‘qquz yoshta edim. Ne ko‘p ish ko‘rub edim, ne tajriba bo‘lub edi”. Bu iqtibos Boburning davlatchilik tafakkuridagi noyob jihatni ochib beradi. Ya’ni, u kamchilikni yoshligi va tajribasizligi bilan bog‘laydi. Aybni boshqalarga yuklamaydi, o‘zini oqlamaydi. Bu – hukmdor uchun kam uchraydigan fazilat.

Boburning davlatchilikka munosabatida xalq roziligi ham hal qiluvchi o‘rin tutadi. “Boburnoma”da u Samarqand qamali chog‘ida aholi chekkan qiyinchilikni shunday tasvirlaydi: “Elga bisyor tanqisliq bo‘ldi… faqir va miskin it etini, eshak etini yeya kirishtilar”. Bobur urushni qahramonlik sahnasi sifatida emas, balki inson taqdiriga solingan og‘ir sinov sifatida ko‘rsatadi. U shaharlarning vayron bo‘lishi, xalqning ochlik va qiyinchilikka duchor bo‘lishini davlat uchun eng og‘ir oqibat deb biladi.

Bobur urushning natijasini faqat g‘alaba yoki mag‘lubiyatga taqamay, odamlar taqdiri bilan o‘lchaydi. Qamal uzayganida u ochiq tan oladi: “Sipohi va raiyat navmid bo‘lib, birar, ikkirar qo‘rg‘ondin tashlab qocha kirishtilar”. Bu satrlar Boburning hokimiyatga ma’naviy mas’uliyat bilan qaraganini ko‘rsatadi. Uning tafakkurida hokimiyat xalq oldidagi burch edi. Ana shu yondashuv Boburni oddiy sarkardadan ko‘ra kengroq, asrlar oshib ham nufuzini yo‘qotmaydigan davlat arbobiga aylantiradi.

MA’RIFAT ORQALI JAMIYATNI UYG‘OTISH

XX asr boshlarida maydonga chiqqan jadidlar harakati siyosiy kurashni to‘g‘ridan to‘g‘ri hokimiyat uchun emas, inson ongi uchun olib bordi. Ular jamiyat o‘zgarishi, avvalo, fikrda boshlanishini yaxshi anglar edilar. Shu bois, jadidlar uchun asosiy maydon maktab, matbuot, teatr va so‘z minbari bo‘ldi. Bu harakat qalam bilan qurollandi.


Jadidlar tafakkurida hokimiyat muammosi davlat tuzilmasidan ko‘ra chuqurroq qo‘yildi. Ularning fikricha, jamiyat qullik ruhidan chiqmas ekan, har qanday hokimiyat zulmga aylanishi mumkin. Shu sababli, bu fidoyilar “Kim hukmron?” degandan ko‘ra, “Kim anglagan?” degan savolni ustuvor bildilar. Ma’rifat jadidlar uchun siyosatning eng oliy shakli edi.

Jadid asarlarida tanqid ochiq va qat’iy, ammo hech qachon vayronkor bo‘lmagan. Ular hokimiyatni butunlay inkor qilish yo‘lidan bormadi, aksincha, vijdon va mas’uliyat bilan boshqaruvga chaqirdi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Haq olinur, berilmas” kabi maqolalarida podshoh yoki ma’muriyatni la’natlashdan ko‘ra, amaldorning johilligi, ta’limsizligi va xalq dardini bilmasligini asosiy muammo sifatida ko‘rsatadi. Uningcha, muammo hokimiyatning mavjudligida emas, balki uning qanday odamlar qo‘lida ekanidadir.

Jadidlar uchun amaldor johilligi, xalq savodsizligi va maktablar qoloqligi bir-biriga bog‘langan bitta zanjir edi. Behbudiyning “maktab isloh qilinmas ekan, millat isloh bo‘lmas” degan mazmundagi fikrlari yoki Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi asarlari shuni ko‘rsatadiki, ular jamiyatni yuqoridan zo‘rlik bilan emas, quyidan ma’rifat bilan o‘zgartirishni taklif qiladi. Agar maktab qoloq bo‘lsa, xalq ongsiz qoladi, xalq ongsiz bo‘lsa, hokimiyat ham mas’uliyatsiz bo‘ladi. Jadidlar ana shu halqani uzishni maqsad qildi.

Jadidlar faoliyatida xalq roziligi g‘oyasi alohida o‘rin tutadi. Ular uchun xalq shunchaki boshqariladigan omma emas, tarbiyalanishi, qaror qabul qilishga tayyorlanishi lozim bo‘lgan kuch edi. Shu bois, jadidlar gazeta va jurnallar chiqarib, xalq bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qildi. Sahna asarlari orqali esa johillik, poraxo‘rlik, soxta dindorlik kabi illatlarni ochiq ko‘rsatdi. Behbudiyning “Padarkush” dramasi hokimiyatga qarshi chaqiriq emas, jamiyatning o‘ziga oyna tutib qaratish edi.

Zero, jadidlar harakati siyosiy inqilob emas, ma’naviy inqilob edi. Ular davlatni o‘zgartira oladigan insonni tarbiyalashni maqsad qildi.



Bu yondashuv jadidlikni faqat bir davrda qolib ketgan harakatdan ko‘ra bugun ham dolzarb bo‘lgan tafakkur maktabiga aylantiradi. Jadidlar bergan asosiy saboq hokimiyatni o‘zgartirishdan oldin, uni nazorat qila oladigan ongni shakllantirish zarurati edi.

MA’NAVIY DAVOMIYLIK

Bobur ham, jadidlar ham qudratni yagona hal qiluvchi omil deb bilmaydi. Bobur uchun harbiy g‘alaba inson hayoti bilan, jadidlar uchun esa siyosiy ustunlik ma’naviy yetuklik bilan o‘lchanadi. Biri davlatni saqlab qolish uchun o‘zini hisobga tortadi, ikkinchilari jamiyatni qutqarish uchun fikrni uyg‘otadi. Maqsad turlicha ko‘rinsa-da, manba bitta – mas’uliyatli tafakkur.

Shu ma’noda, jadidlar Boburning ma’naviy merosxo‘rlaridir, desak haqiqat bo‘ladi. Ular Bobur boshlagan yo‘lni yangi davr sharoitida davom ettirdilar. Shamshir o‘rniga so‘z, saroy o‘rniga maktab, hokim qarorlari o‘rniga jamoat fikrini qo‘ydilar. Bu inkor emas, davrga hamohang o‘zgarish edi.



HAL QILUVCHI OMIL

Zahiriddin Muhammad Bobur davlatchilik tafakkurida xalq bilan hokimiyat o‘rtasidagi munosabatni hal qiluvchi omil sifatida ko‘radi. “Boburnoma”da u qamal va urush sharoitida davlatning ahvolini devorlar yoki qo‘shin soni bilan emas, xalqning holati bilan o‘lchaydi. Bobur tafakkurida xalq davlat taqdirini belgilaydigan haqqoniy kuchdir. Urush maydonida emas, xalq hayotida qabul qilingan noto‘g‘ri qarorlar davlat uchun eng katta xavf ekanini u ochiq tan oladi. “Boburnoma” shu jihatiga ko‘ra hokimiyatni raiyat ahvoliga javobgarlik bilan baholaydigan davlatchilik maktabidir.

Jadidlar mana shu g‘oyani mutlaqo yangi ijtimoiy sharoitda davom ettirdi. O‘sha zamonda hokimiyat xalqdan tobora uzilib, davlat bilan jamiyat o‘rtasida chuqur jar paydo bo‘lgan edi. Oydinlar bu uzilishni qurol bilan emas, ong bilan bartaraf etish mumkinligini tushundilar. Shu bois, ularning kurashi johillikka qarshi qaratildi. Jadidlar xalqni boshqarish mumkin, ammo uni aldash mumkin emas, degan qat’iy e’tiqodda bo‘ldi.

Bu nuqtada ham ikki o‘rtada chuqur ma’naviy uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Bobur xalq roziligini yo‘qotgan hokimiyatning barqaror bo‘la olmasligini o‘z tajribasi orqali anglagan bo‘lsa, jadidlar bu xulosani jamiyat miqyosida ilgari surdilar. Shu ma’noda, Bobur va jadidlar merosi har qanday zamonda dolzarbdir. Chunki hokimiyatning haqiqiy tayanchi xalq ishonchi va ma’naviy aloqadadir. Ana shu ishonch bor joyda davlat yashaydi, yo‘q joyda esa u faqat nomigagina mavjud bo‘ladi.

TARIXIY TAFAKKURDAN KELAJAK STRATEGIYASIGA

Bugun “Uchinchi Renessans” degan tushuncha balki milliy taraqqiyotning ma’naviy va intellektual dasturi sifatida maydonga chiqmoqda. Bu g‘oyaning ildizlari esa xalq tafakkurida avvaldan mavjud bo‘lgan, turli davrlarda turli shakllarda namoyon bo‘lgan ma’naviy an’ananing davomidir.

Bobur davrida Renessans g‘oyasi davlat boshqaruvida namoyon bo‘lgan. U hokimiyatni ilm, tafakkur va ma’naviy mas’uliyat bilan uyg‘un holda angladi. Uning tafakkurida ilm-ma’rifat davlat qudratining ichki tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu renessansning siyosiy shakli edi. Agar Bobur davlatni ma’naviy asosda saqlab qolishga intilgan bo‘lsa, jadidlar millatni ma’naviy inqirozdan olib chiqishni maqsad qildilar. Ular uchun renessans ilmli avlod, ongli jamiyat, erkin fikr edi. Jadidlar maktabni isloh qildi, so‘zni qurol qildi, fikrni harakatga aylantirdi. Bu renessansning ijtimoiy va ma’rifiy bosqichi hisoblanadi.

Fikrimizcha, Uchinchi Renessans ana shu ikki tajribani umumlashtirgan holda namoyon bo‘lishi lozim. U faqat iqtisodiy o‘sish yoki texnologik taraqqiyot bilan cheklanmaydi. Agar ilm ma’naviyatdan, hokimiyat javobgarlikdan uzilsa, taraqqiyot barqaror bo‘lolmaydi. Shu ma’noda, Boburdan mas’uliyatli hokimiyat sabog‘ini, jadidlardan ongli jamiyat g‘oyasini olish bugungi kun uchun muhim ahamiyatga ega. Bobur va jadidlar bizga yo‘lko‘rsatkich: davlat ham, jamiyat ham ilm, adolat va inson qadriga tayangandagina taraqqiy etadi. Ana shu haqiqat bugun ham, ertaga ham o‘z qiymatini yo‘qotmaydi.

MEROSNING GLOBAL QIYMATI

Milliy o‘zlikni saqlab qolish va jahon bilan uyg‘un rivojlanish masalasi har bir davr uchun dolzarb. Bu borada Zahiriddin Muhammad Bobur ham, XX asr boshida maydonga chiqqan jadidlar ham bir umumiy tamoyilga tayanadi: o‘zligini yo‘qotmagan xalqgina dunyo bilan teng muloqot qila oladi. Ular uchun milliylik yopiqlik yoki boshqa yo‘llarni inkor etish emas, jahonga ochilishning mustahkam poydevori edi.

Bobur o‘z faoliyati bilan shu haqiqatni amalda isbotladi. U Hindistonda ulkan saltanat barpo etar ekan, mahalliy madaniyatni inkor qilmadi, aksincha, turkiy-ma’naviy an’analarni yangi muhitda saqlab qolishga intildi. Turkiy tilda ijod qilish, tarixni shaxsiy xotira orqali yozish, tabiat va inson munosabatini davlatchilik tafakkuri bilan bog‘lash – bularning barchasi Boburning milliy o‘zlikni jahon sahnasida yo‘qotmaslikka qaratilgan ongli tanlovi bo‘lgan.

Jadidlar uchun esa milliy o‘zlik zamon bilan birga yangilanish edi. Jadidlar jahon ilmi, pedagogikasi, matbuot tajribasini qabul qilar ekan, milliy til, tarix va madaniyatni islohot markaziga qo‘ydilar. Ular jamiyatni dunyo bilan teng muloqot qila oladigan millatga aylantirishni maqsad qildilar. Bu yerda muhim jihat shundaki, Bobur ham, jadidlar ham milliylikni siyosiy shiorga aylantirmadi. Ular uchun milliy o‘zlik – mas’uliyat edi. Ana shu yondashuv ularning merosini tor davriy chegaradan chiqarib, jahon sivilizatsiyasi kontekstida ahamiyatli qiladi.

Bobur va jadidlar tajribasi o‘zligini anglagan millatgina jahon jarayonlarida faol ishtirok eta olishi mumkinligi borasida muhim saboq beradi. Milliylik bilan globallikda uyg‘unlik borligini ular o‘z hayoti va faoliyati bilan ko‘rsatib bergan.

TARIXDAN KELAJAKKA UZATILGAN DASTUR

Tarix har doim hozirgi sun’iy intellekt kabi tayyor siyqa dastur to‘qib bermaydi, aksincha savolni to‘g‘ri qo‘yishni o‘rgatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur va jadidlar merosi bugungi dunyo oldiga “Hokimiyat nimaga tayanishi kerak – qudratgami yoki vijdonga, farmongami yoki ma’rifatga, qo‘rquvgami yoki ishonchga?” degan savolni qo‘yadi.

Bobur va jadidlar bizga jamiyat ma’rifatsiz rivojlanmaydi, inson qadri e’zozlanmagan davlat esa kelajakni boy beradi, degan haqiqatni uqtiradi. Shu ma’noda, ularning merosi o‘tmish haqidagi xotiradan ko‘ra ko‘proq kelajak uchun berilgan ma’naviy dastur ekani anglashiladi.


Munisjon HAKIMOV,
O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi
bo‘limi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori



“Bobur fe’li-sajiyasiga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan.

Eduard XOLDEN

OLAM OLIMI



YOSINORI OSUMI

Hujayra autofagiyasini ochib bergan nobelchi

Biologiya va tibbiyotda tub burilish yasagan olimlardan biri yaponiyalik Yosinori Osumidir. U autofagiya mexanizmini, ya’ni hujayra o‘zining zararlangan qismlarini parchalab, tozalab, qayta ishlashi jarayonini ilmiy jihatdan isbotlab bergan. Ushbu kashfiyot orqali u ixtiyoriy ochlikning inson salomatligiga foydalarini anglashga yo‘l ochdi.

ILMIY BIOGRAFIYA

Yosinori Osumi 1945-yil 9-fevralda Yaponiyaning Fukuoka shahrida tug‘ilgan. Tokio universitetini tamomlab, molekulyar biologiya sohasida ilmiy faoliyat boshlab, doktorlik darajasiga erishgach, AQSHning Rokfeller universitetida tadqiqotlarini davom ettiradi. 1977-yilning oxirida u vataniga qaytib, o‘z ilmiy guruhini tashkil etgan, yosh olimlarni tarbiyalagan.

Ilmiy faoliyati asosan oddiy organizm – xamirturush zamburug‘i (yeast) ustida olib borilgan tadqiqotlarga tayanadi. Aynan shu model orqali u autofagiya jarayonining genetik va molekulyar mexanizmlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi.

AUTOFAGIYA NIMA?

Autofagiya – bu hujayraning o‘zini-o‘zi tozalash va yangilash mexanizmi. Jarayonda hujayra ichidagi eskirgan, shikastlangan yoki keraksiz tuzilmalar maxsus qopchalar orqali parchalanib, energiya yoki yangi molekulalar manbaiga aylantiriladi.

Yosinori Osumi autofagiya uchun javobgar bo‘lgan genlarni aniqlab, bu jarayon qanday boshlanishi, nazorat qilinishi va tugashini ilmiy asosda ko‘rsatdi. Bu esa hujayra hayotini tushunishda yangi bosqichni boshlab berdi.

AHAMIYATI

Osumining kashfiyotlari qator kasalliklarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Autofagiya jarayonining buzilishi quyidagi holatlar bilan bog‘liq ekani aniqlandi: neyrodegenerativ kasalliklar (Altsgeymer, Parkinson), saraton, qandli diabet, infeksion kasalliklar.

Ayniqsa, saraton hujayralarida autofagiyaning ikki xil – ham himoyachi, ham xavfli rol o‘ynashi mumkinligi haqidagi tushunchalar aynan Osumi tadqiqotlaridan keyin shakllandi.

OCHLIK VA AUTOFAGIYA

Olimning ishlari shuni ko‘rsatdiki, ochlik holatida autofagiya faollashadi. Bu hujayraga ichki resurslardan foydalanib, hayot faoliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Shu sababli, uning tadqiqotlari parhez, interval ochlik va metabolizm sohalaridagi ilmiy ishlar uchun ham asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu degani ixtiyoriy ochlik ham davolanishning yoki sog‘liqni saqlashning bir turidir. Xususan, so‘nggi yillarda jahon tibbiyotida ochlik bilan davolish keng tarqalmoqda.

E’TIROF

2016-yilda berilgan Nobel mukofoti Yosinori Osumining ilmiy faoliyatiga jahon miqyosidagi yuksak bahodir. Uning ishlari bugungi kunda ham dunyo bo‘ylab yuzlab laboratoriyalarda davom ettirilmoqda va yangi davolash usullarini ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. “Bu yilgi Nobel laureati autofagiya – hujayra komponentlarini parchalash va qayta ishlash bo‘yicha fundamental jarayonning asosidagi mexanizmlarni kashf etdi va tushuntirib berdi” deyiladi mukofot qo‘mitasi bayonotida.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

TOPILMA

Askariy Mirzo qasidasi



Otabek JO‘RABOYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Zahiriddin Muhammad Boburning farzandlari ko‘p jihatdan otasiga taqlid qilib, uning hukmdorlik va ijodkorlik salohiyatini o‘z faoliyatlarida takrorlashga intilgan.

Chunonchi, bir necha adabiy manbalarda Askariy Mirzoning ham she’r yozgani borasida ma’lumot bor.

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”da ushbu boburiyzodani “xushtab podshohzoda” va “ilm-u fazlga mayli bor”ligini ta’kidlab, “To kard Xudo ro‘zi man vodii g‘amro...” deya boshlanuvchi g‘azalini keltiradi. Fahriy Hiraviyning “Ravzat-us-salotin”ida esa “fahm-u farosati nihoyatda yaxshi” ekani va “tab’i nazm uslubida e’tiborga loyiqligi” yozilib, fors tilidagi bir ruboiy va ikki matla’si keltiriladi. Askariy Mirzoning shoirligi haqida shundan boshqa ma’lumot deyarli uchramaydi.

Askariyning hayot yo‘li turli siyosiy o‘yinlar va sarguzashtlarga boy o‘tgan. Umrining so‘nggi yillari borasida aniq ma’lumotlar aytarli yo‘q. Makkada vafot etgani eslatiladi, xolos.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Askariy Mirzo Hijozga borishdan oldin Istanbulda ham bir fursat yashagani va hatto usmonli saroyiga yaqinlashishga harakat qilgani haqida dalillar paydo bo‘lmoqda. Buning asosi hozirda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Jorulloh bo‘limidagi 1668-raqamli qo‘lyozmadir. Bu manba Askariy Mirzoning devoni bo‘lib, u paleografik xususiyatiga ko‘ra, taxminan XVI asrning ikkinchi yarmida kitobat qilingan.

Devon hajmi katta emas, 36 varaq. Nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Undan muallifning turkiy va forsiy ijod mahsuli o‘rin olgan. Jumladan, fors tilida 88 g‘azal, 1 qasida, 1 soqiynoma va 2 ruboiy; turkiy 1 qasida va 7 g‘azaldan iborat.

Shoirning o‘zbekcha tab’i nazmi ravon ekanini ko‘rish mumkin. Uning ulug‘ so‘z san’atkorlari Alisher Navoiy va Mavlono Lutfiy ijodidan ko‘p bahra olgani she’rlaridan ma’lum bo‘ladi. Masalan, Navoiyning ikki g‘azaliga quyidagicha matla’ bilan nazira yozgan:

Oshiqi dilxastani
gar dilbari shod aylagay,
Oncha bordurkim,
buzug‘ olamni obod aylagay.

Umuman olganda, Askariy Mirzoning nazmi sodda va ravon. Usluban murakkab bo‘lmagan satrlarda fikrni aniq izhor qilish, tasvirni yorqin ifodalash aynan hazrat Bobur g‘azallarini eslatadi.

Endi Askariyning Istanbulda bo‘lishi bilan bog‘liq farazga to‘xtalsak. Ayni devonning dastlabki she’ri forscha qasida bo‘lib, u usmonli-turk sultoni Qonuniy Sulton Sulaymonga bag‘ishlangandir. Jumladan, asardagi ushbu bayt ham bunga dalil bo‘ladi:

Hazrati sulton
Sulaymon Xusravi getiston,
Vorisi mulki jahon-u
sohibi asr-u viqor.

Ushbu qasida va yana bir necha she’rda ham aynan Sulton Sulaymon nomiga ishoralar, unga madh-u sanolar o‘rin olgan.

Devon oxirrog‘idagi “Har qachon ul sarvqad ohangi javlon aylagay” misrasi bilan boshlanuvchi she’r ham shunday mazmundagi asar ekanini o‘rgandik. U eski o‘zbek tilida yozilgan. Bu qasida ham forschasi kabi nomlanmagan. Hajmi (24 bayt – 48 misra) va shakli ham shu janr talabiga javob beradi.

Qasida bir go‘zal chaman ta’rifi bilan boshlanib, mazmun bora-bora Sulton Sulaymon dargohini bir bog‘ga mengzash bilan bog‘lanadi. Muallif ana shu gulzor-u bog‘ egasining lutf-u marhamatiga muhtojligi, ojizligi va sarafroz etilishdan umidvorligi, sohibqiron (Sulaymon) uni o‘ziga “aqron” (yaqin) lardan biriga aylantirishiga ko‘z tutayotganini ma’lum qiladi. Qasida maqta’sida shoir bu muddao va tilakni aniq bildirgan:

Askariy, ul Xusravi
sohibqiron oxir seni,
Lutf etib, olam aro
mumtozi aqron aylagay.

Ushbulardan birinchi taxmin shuki, Askariy Mirzo Hijoz safaridan oldin, taxminan 1550-yillarda, usmonli saltanatining poytaxtida yashagan. Ushbu devondagi keltirilgan aksar she’rlarni ham shu yerda yozgan ko‘rinadi.

Shuningdek, ta’kidlangan qo‘lyozmaning ilk sahifasida kutubxona muhri (zamonaviy) va pastroqda “Ahmad afandi vaqfi”ga oidligi haqida qadimiy muhr bor. Shu bilan birga, eslatma qayd etilgan: “Devoni Askariy, daxili mulki Muhammad og‘o kotibi muzofoti al-Hoj Ahmad posho voliyi Oydinsobqo daxili mulki Muhammad afiallohu taolo anhu” (Oxirgi duo uch bora ketma-ket yozilgan).

Bu esa quyidagi taxminni keltirib chiqaradi: Askariy o‘z devoniga Hijoz (Makka)da tartib bergan va Muhammad og‘o kotibga Istanbulga yuborish uchun taqdim etgan. Albatta, bu dastlabki mulohazalar bo‘lib, manba yuzasidan hali izchil izlanishlar davom etishi shubhasiz.

Qo‘lyozmaning kotibi ko‘rsatilmagan. Lekin yozilish uslubidan u Movarounnahr nasta’liq xatidir. Usmonli xattotlari ko‘p ham bu xattiy uslubni qo‘llamaganlar. Shunga ko‘ra, Askariy devonining xattoti ham muallifning o‘zi bo‘lishi ehtimoldir. Chunki Bobur o‘z farzandlarining har jihatdan puxta ta’lim olishiga alohida e’tibor bergan edi. Jumladan, xat ilmi va chiroyli yozuviga ham. Askariy ushbu malakasini o‘z devonida qo‘llaganini taxmin etish mumkin.

Bu fikrga kelishimizga yana bir sabab, qo‘lyozma devonda deyarli bezak yo‘q. Faqat sahifalarga jadvallar ishlangan, xolos. Poygir bor. Xat ravon nasta’liq bo‘lsa-da, ayrim sahifalarga tuzatma va hoshiyalarga kiritmalar qilingan. Ayrim sahifalarning hoshiyalarida keyinchalik boshqa kotib tomonidan o‘zgacha xat bilan Hofiz Sheroziy g‘azallaridan yozib qo‘yilgan. Demak, bu qo‘lyozma qaysidir ma’noda musavvada (qoralama)dir va to‘liq devon tartibiga keltirilmagan.

Maqolamiz oxirida Askariy Mirzoning o‘zbek tilidagi mazkur qasidasining fotosurati va tabdil qilingan matnini to‘liq holda ilk marotaba gazetxonlarga taqdim etmoqdamiz.

Askariy MIRZO

QASIDA

Har qachon ul sarvqad ohangi javlon aylagay,
Bog‘bon tarki gul-u shamshod-u rayhon aylagay.

Andalibi xushnavo gulshanda gulni shavqidin
E’tikof etib hamisha shukri Yazdon aylagay.

G‘unchai navras chamanda jumlai atrofini
Huqqai feruzagun ichinda pinhon aylagay.

Har kishi ahbob ila gul vaqtida baxtiyor
Peshini badrud etib, azmi guliston aylagay.

Bo‘lmagay gulshan kibi rangin-u xo‘b-u xushnamo,
Qog‘az uzra gar kishi tazhibi afshon aylagay.

Gul daraxtin shohini nogah chamanda, ey ko‘ngul,
Har kishi ko‘rsa, xayoli shohi marjon aylagay.

Anga o‘xshar – chashmani suyi chamandakim, birov
Ko‘zguni sayqal qilib, shaffof-u raxshon aylagay.

Sabzai navras chamanda bordurur, anga shabih
Kim, kishi zangorni to‘kub parishon aylagay.

Gar nasim, subhi dam gulshanda o‘tsa, ul zamon,
Sunbuli jo‘lida ham jondin parishon aylagay.



Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan Askariy Mirzoning devoni.

G‘uncha yafroq orasinda anga o‘xsharkim, kishi
Tugmadin oroyishi zebinda xokdon aylagay.

Gul daraxtig‘a qizil gul bordurur, andoqki, yor
Halqasin ziynat uchun la’li Badaxshon aylagay.

Bulbuli xushgo‘ dag‘i, gulshanda gulni vaqtida
Gulga boqib har zamon, tashni’i rayhon aylagay.

Bog‘bon xilvat etib, gulshanni gulning vaqtida
Ishrat ahlin tolibi miftohi bo‘ston aylagay.

Bir zamon naqqosh agar, gulshanni ko‘rsa, rashkdin
Hamani muzmar etib, qog‘azni pinhon aylagay.

Har qachonkim, forig‘ o‘lsa, o‘zga ishlardin faqir,
Istimo’i go‘ft-u go‘i Sa’du Salmon aylagay.

Yo‘q kishida hech shug‘le ondin ortug‘, ey ko‘ngul,
Toki doim midhati sulton Sulaymon aylagay.

Lutf etib ojizni ul qilg‘ay sarafrozi jahon,
Hukm etib fag‘furni mahkumi xoqon aylagay.

Xusravi mardumnavoz-u shahriyori sarfaroz,
Lutf etib, ul qatrani daryoi ummon aylagay.

Anga o‘xshar olam ichra lutfini xosiyati
Kim, chamanda doimo boroni nayson aylagay.

Har kishiga gar inoyat qilsa ul bir lahzada,
Shafqatidin Xusravi Eron-u Turon aylagay.

Kimdurur Firdavsii Tusiyki vasfining borida
Kim, jahonda shuhrati tarixi dehqon aylagay.

Bordurur jismi zaif-u notavon, hajr ilgidin
Ham magar lutfing seni taskini xirmon aylagay.

Doimo xushvaqt bo‘lki, ey ko‘ngul, kim oqibat
Ul Masihodam sanga, mushkilni oson aylagay.

Askariy, ul Xusravi sohibqiron oxir seni
Lutf etib, olam aro mumtozi aqron aylagay.

JAHON AYVONIDA

YANGI KONSTITUTSIYA REFERENDUMI



Qozog‘iston prezidenti Qasim-Jomart Toqayev 15-mart kuni yangi Konstitutsiya bo‘yicha umumxalq referendumini o‘tkazish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Bu haqda prezident matbuot xizmati xabar berdi.

Farmonga ko‘ra, referendumda “Siz Qozog‘iston Respublikasining 2026-yil 12-fevralda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan yangi Konstitutsiya loyihasini ma’qullaysizmi?” degan savol qo‘yiladi.

PARLAMENTDA MUSHTLASHUV

Turkiya parlamentida deputatlar Adliya vazirligiga bahsli tayinlov tufayli mushtlashdi. Bu haqda Euronews xabar berdi.

Mojaro muxolifatdagi Respublika xalq partiyasi hamda hukmron Adolat va taraqqiyot partiyasi o‘rtasida yuz berdi. Hodisa yangi adliya vaziri Akin Gurlek qasamyod qilayotgan paytda sodir bo‘lgan.



Muxolifat deputatlari prezident Rajab Toyyib Erdo‘g‘on tomonidan tayinlangan Istanbul bosh prokurori Akin Gurlekning parlamentda qasamyod qabul qilishiga to‘sqinlik qilishga uringan.

SPIKER ISTE’FOGA CHIQDI

Qirg‘iziston parlamenti (Jogorku Kenesh) spikeri (to‘rog‘a) Nurlanbek Turg‘unbek o‘g‘li (Nurlanbek Shakiyev) iste’foga chiqdi. Bu haqda uning o‘zi parlament yig‘ilishida e’lon qildi.



U o‘z qarorini ixtiyoriy ravishda qabul qilgani va unga hech qanday bosim bo‘lmaganini bildirgan.

NATSIST RAMZLI LIBOS SOTUVDAN OLINDI

Onlayn-Olimpiya o‘yinlari do‘koni OAV tanqidlaridan so‘ng, natsistlar Germaniyasida o‘tkazilgan 1936-yilgi Olimpiada ramzlari tushirilgan futbolkani sotuvdan olib tashladi.

Italiyada bo‘lib o‘tadigan qishki o‘yinlar arafasida musobaqaning rasmiy onlayn-do‘koni (Xalqaro olimpiya qo‘mitasi buyurtmasiga ko‘ra xususiy britan kompaniyasi tomonidan boshqariladi) ilgarigi Olimpiadalar



ramzlariga bag‘ishlangan futbolkalar kolleksiyasini chiqargan edi.

SINGAPUR MUKOFOTLASHDA YETAKCHI

Singapur Italiyaning Milan va Kortina d'Ampetsso shaharlarida o‘tkazilayotgan 2026-yilgi qishki Olimpiya o‘yinlarida g‘alaba qozongani uchun eng katta mukofot (oltin medalga 788 ming dollar) to‘lashni e’lon qilib, ro‘yxatda birinchi o‘rinni egalladi. Bu haqda USA Today nashri xabar berdi.



MILLAT FIDOYILARI

QAYRILGAN QANOT



Ba’zi odamlar nazdida, go‘yo hech kim qatag‘onga qarshi bosh ko‘tarmay, mum tishlagan, so‘z aytishga jur’at etmagan, nohaq ayblov, tuhmat, bo‘htonlar oldida tilini ichiga yutgandek tuyuladi. Bunday tasavvur qo‘rquv hukm surgan muhitni hisobga olganda, hatto tushunarli ham. Lekin arxiv hujjatlari bunday talqinni “hazm qilish”ga izn bermaydi. Chunki qatag‘on hali avj olmasidanoq, jamiyatda kechayotgan nohaqliklar, zo‘ravonliklarga nisbatan o‘z munosabatini qat’iy bildirgan, jasoratli, “to‘g‘rilik orqasida bosh ketsa “ih” demaydigan” jadid bobolarimiz, ajdodlarimiz ko‘p bo‘lgan. Mana shunday jasur insonlardan biri Isroil Ortiqov edi.

Isroil Ortiqov 1907-yili Qo‘qon shahrida hunarmand oilasida tug‘ilgan. Otasi do‘ppilar uchun qolip tayyorlab, ularni eski shahardagi do‘konida sotib ro‘zg‘or tebratgan. Oila besh kishidan iborat bo‘lib, bir xonali uyda yashagan. Bundan tashqari, momosi mablag‘iga qurilgan yana bir uy bo‘lib, u yerda ijarachilar istiqomat qilgan. Biroq 1918-yildan keyin bu uyning bir qismi buzilib, qolgan qismi kommunal xo‘jalik ixtiyoriga berib yuboriladi. Qahramonimiz o‘z tarjimayi holida qayd etganidek, “bundan tashqari oilaning hech qanday mol-mulki bo‘lmagan”.

Isroil Ortiqovning bolaligi inqilob va fuqarolar urushi tufayli izdan chiqqan, beqaror yillarga to‘g‘ri keldi. 1918-yil Farg‘ona vodiysida hokimiyat uchun kurash eng shafqatsiz bosqichga chiqqan, ayniqsa, tinch aholi orasida qurbonlar soni keskin ko‘payib bormoqda edi. Ana shu og‘ir sharoitda, sovet hokimiyati tiklanayotgan damda dashnoqlar partiyasi a’zolari xonadon tinchini buzadi. Ular uyga bostirib kelib, oila boshini tashqariga olib chiqadi-da, oila a’zolari ko‘z o‘ngida o‘ldiradi. Taassufki, o‘sha yillarda bunday qatllar ommaviy tus olib, ko‘plab oilalar otasiz, tirikchilik ustunisiz qolgan.

Ikki yildan so‘ng onasi ham vafot etib, Isroil bolalik chog‘idayoq yetim qoladi. Bir muddat to‘ng‘ich akasi, temir yo‘l ishchisi Ahmadjon Ortiqov qaramog‘ida yashaydi. Biroq bu tayanch ham uzoqqa bormaydi. 1927-yili Ahmadjon Ortiqov kasalxonada operatsiya vaqtida hayotdan ko‘z yumadi. Isroil Ortiqovning o‘zi bu voqeani akasiga nisbatan “dushmanlarcha operatsiya qilingan” deb qayd etadi. Shu tariqa, inqilob yillari Isroil Ortiqov taqdiriga ikki martalab yetimlik muhrini bosdi.

1919-yildan so‘ng yosh Isroil mustaqil tirikchilik qilishga majbur bo‘ladi. O‘sha davrda sag‘ir bolalar uchun tanlov – yo ishlash, yo och-nahor qolishdan iborat edi. Shu sharoitda Isroil Qo‘qonning eski shahrida Isxonboy nomli boynikida uch yilga yaqin batraklik qiladi. Keyin katta yer va hammomga ega boshqa bir boy – hammomchi Hojiga ishga yollanadi. Bu yerda ikkinchi akasi Ibrohim Ortiqov bilan birga ishlaydi. So‘ngra Farg‘ona jinoiy qidiruv idorasida xat tashuvchi va agent sifatida xizmat qiladi. Akasi armiya safiga chaqirilgach, Isroil uning o‘rnida ishlay boshlaydi. Hujjatlarga ko‘ra, qahramonimizning akasi Ibrohim Ortiqov 1924-yildan armiyada xizmat qilib, keyinchalik kapitan unvonigacha ko‘tarilgan.

1925-yil Isroil Ortiqov hayotida yangi bosqich boshlanadi. U temir yo‘l transportiga ishga kiradi. Avvaliga tovar poyezdida kichik konduktor bo‘lib, keyin esa mas’uliyati va intizomi tufayli stansiya boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritadi. Pop, Haqqulobod, Ko‘gay, Poytug‘ va Serevo stansiyalari orqali qatnaydigan Namangan yo‘nalishida xizmat qiladi.

1928-yili Bag‘dod tumani komsomol konferensiyasida Isroil Ortiqov tuman komiteti kotibi etib saylanadi. Shu paytdan boshlab uning butun hayot yo‘li komsomol faoliyati bilan uzviy bog‘lanadi. U turli yillarda Bag‘dod, Oltiariq, Quva, Qo‘qon, Eski shahar hamda Farg‘ona okrugi komsomol tashkilotlarida tuman va shahar kotibi sifatida ishlaydi. Bu lavozimlar uni joylardagi yoshlar hayoti, ijtimoiy muammolar va kadrlar siyosati bilan bevosita yuzma-yuz qiladi.

1930-yil dekabrdan 1931-yil aprelgacha Isroil Ortiqov O‘zbekiston LKSM Markaziy Komiteti Tashkiliy bo‘limi mudiri bo‘lib ishlaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, shu joyda birinchi kotib lavozimiga ko‘tariladi. Komsomolga u Qo‘qonda 1920-yilda kirgan bo‘lib, 1929-yildan partiya a’zosi hisoblanardi. Bu ma’lumotlar qahramonimiz faoliyati uzoq yillik ish tajribasi va tizim ichidagi o‘sish natijasi ekanini ko‘rsatadi. Ayni shu maqom va ishonch uni qatag‘on arafasidagi siyosiy muhitni yaqindan ko‘rish, joylarda kechayotgan voqealardan ichdan boxabar bo‘lish imkonini bergan.

O‘sha paytda begunoh, turli ayblov, tuhmat-u bo‘htonlar tufayli tazyiqqa uchrab, qatag‘onga tutib berilayotgan insonlar haqida gapirgan odam xatarga duch bo‘lardi. Bunday qayishuvchanlik, hamdardlik “jinoyatga sherik” tarzida baholanib, uni aytgan shaxsning o‘zi ham ta’qib girdobiga tortib ketilgan. Shunday bo‘lsa-da, ko‘pdan ko‘p begunoh odamlar chekayotgan dahshatlarni katta minbarlardan turib dadil ayta olgan kam sonli shaxslardan biri qahramonimiz bo‘ladi.

Biz bunday jasoratni Isroil Ortiqovning 1932-yil 23-avgustda bo‘lib o‘tgan yoshlar anjumanidagi mardonavor nutqida yaqqol kuzatamiz. U beayb qatag‘on qilinayotgan odamlarni ajal domidan qutqarishga intiladi. Manbalarda keltirilishicha, Isroil Ortiqov o‘sha anjumanda shunday deydi: *“Mana sizlarga axloq tuzatish uyida bo‘lib o‘tgan bir fakt. Bu yerda 15 yoshida 3 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan bir bola o‘tiribdi. Bu bola hozirgacha qamalib yotib, yoshi 17 ga yetgan. 16 yoshdagi bir bola bo‘lsa, ot o‘g‘irlab ketayotgan odamni ko‘rgan, lekin o‘g‘rini ushlash qo‘lidan kelmagan, ammo o‘g‘rini ko‘rganini so‘zlagani uchun qamalgan... Yoki, bir kambag‘al bechora zayom uchun 10 so‘m qarzdor bo‘lgan, uning kambag‘alligi inobatga olinib, qarzni to‘lash bir haftaga kechiktirilgan. Shunday bo‘lsa ham, shu ish uchun bu kambag‘alni aksilinqilobchilikda ayblab, sud qilganlar”.*

“Madaniy turmush darajasi oshib borayotgani”, “yangi hayot shakllanayotgani” haqida dabdabali hisobotlar berilayotgan bir paytda, Isroil Ortiqov bu da’volar haqiqatdan yiroq ekanini anglatishga urinadi.

“Men bir uy bilan tanishdim, – deydi u o‘z ko‘rgan-kechirganlarini ochiq bayon etarkan. – *Mana shunday bir tom tagida bo‘lgan qorong‘i, zax uylarda bir xonada xotinlar yashaydi, ikkinchi xonada erkaklar yashaydi, bular bilan bir qatorda otxona joylashgan. Ushbu odamlar yonida ot, tuya, ho‘kiz, eshaklar bog‘langan. Hamma binolar loydan, tuproqdan ishlangan bo‘lib, yog‘ochdan ishlangan imoratlar butunlay yo‘q”.*

Ko‘rib turganingizdek, bunday shahd hammada ham topilavermas, ayniqsa, bu holni minbardan turib baralla aytishga har kimning ham yuragi dov bermasdi. Bu chiqish sovet tuzumining, xususan, Stalin davridagi qatag‘on oqibatlari ochiq aytilgan kamyob holatlardan biri sifatida tarixda qoldi. Tabiiyki, bu kabi chiqishdan keyin sovet hokimiyati gumashtalari qahramonimiz boshini silamasligi turgan gap edi.

1937-yil 14-oktyabrda Isroil Ortiqov hibsga olinib, bir yil davomida muttasil qiynoqqa solinadi. 1938-yil 5-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi ko‘plab shaxslar qatori uning ustidan ham hukm chiqaradi. Sud otuvga mahkum etadi va hukm o‘sha kuniyoq ijro qilinadi. Shu tariqa, kechagina komsomol va partiya tizimida ishonchli rahbar sifatida faoliyat yuritgan inson bir zumda “xalq dushmani”ga aylanadi.

Yillar o‘tib Isroil Ortiqovning nomi oqlanadi. “Guliston” jurnalining 1989-yil 4-sonida tarix fanlari doktori Petr Kimning “Qayrilgan qanot yoxud repressiya qurboni Isroil Ortiqov haqida” maqolasi e’lon qilinadi. Keyinchalik uning hayot yo‘li va faoliyatiga bag‘ishlab risola ham chop etiladi. Biroq sovet davrida amalga oshirilgan bunday “rasmiy oqlov”lar qatag‘on fojiasining mudhish oqibatlarini yumshatmaydi.

Asosiy haqiqat shundaki, Isroil Ortiqov va u kabi minglab qatag‘on qurbonlarining nomini xalq xotirasiga to‘laqonli qaytarish faqat mustaqillik sharoitidagina mumkin bo‘ldi. Mustaqillik tufayli arxivlar ochildi, hujjatlar qayta o‘rganildi, bir paytlar “xalq dushmani” degan tamg‘a bilan yo‘q qilingan insonlar nomi haqiqiy qadr topdi. Bugun ularning nomi adolat, jasorat va haqiqat timsoli sifatida tilga olinayotgani – erkinlik bergan eng katta ma’naviy xazinadir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mahmudxon Ahmadxonov – 1896-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1910-yilgacha jadid Salohiddin Majidovning yangi usul maktabida o‘qigan. 1915–1917-yillarda Qo‘qondagi taraqqiyparvarlar harakatida qatnashgan. “Sho‘royi islom” jamiyati mas’ul kotibi, Turkiston muxtoriyatining faol himoyachisi bo‘lgan.

1919-yildan Qo‘qon shahar va uyezdida revolyutsion komitet raisi, viloyat militsiyasi boshlig‘ining o‘rinbosari, Farg‘ona viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i lavozimlarida xizmat qilgan.

“Milliy ittihod” tashkilotining rahbarlaridan biri sifatida, Obidjon Mahmudov, Abbosxo‘ja Mahmudxo‘jayev, Miyon Qudrat Hazrat, Hamdamxo‘ja Qalandarov, Sadriddin Maxsum, Ashurali Zohiriy, Mirzohid Miroqilov bilan yaqin aloqada bo‘lganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 2-bandi va 67-moddalariga asosan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Abdukarim Akbarov – 1907-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Aholi orasida millatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, mavjud tuzumdan noroziligini aytganlikda, ocharchilik va hokimiyat almashinuvi xaqida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan.

Hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan. 2334-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 18-avgustdan hisoblangan.

Muxtorxon Muhammedov – 1899-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” a’zosi, milliy ozodlik harakati vakillari yordamchisi. O‘qituvchi bo‘lgan. 1930-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil qamoqqa hukm etilgan. O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Qo‘qon shahar bo‘limining 1749-sonli ishi bo‘yicha ayblangan.

Millatchilik targ‘iboti olib borgani, xalq dushmanlarini maqtagani uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Abduqodir Qushbegiyev – 1882-yili Andijonda tug‘ilgan. Xudoyorxon tomonidan bosh harbiy qo‘mondon etib tayinlangan. Rustuzem maktabi va gimnaziyada ta’lim oladi. U “Taraqqiyparvarlar” jamiyatidagi inqilobiy faoliyati uchun 10 yil qamoqqa hukm etilgan. Jazoni Solovki orolidagi konslagerda o‘tagan. Ozod bo‘lgach, Toshkentda bolalar uyida ishlagan.

1937-yil 9-avgustda yana qamoqqa olinib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblangan. U o‘ziga qo‘yilgan ayblarni rad etgan. 1937-yil 10-avgustda mudhish uchlik hukmi bilan otilgan. 1989-yil 15-sentyabrda oqlangan.

Hoji Nizomiddin Obidov – 1869-yili Qiziltepa rayoni Arabon qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilot a’zosi sifatida mag‘lubiyatchilik, ig‘vogarlik targ‘ibotini olib borganlikda ayblangan, 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Jazo muddati 1937-yil 12-avgustdan hisoblangan.

Mamat Botirov – 1898-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. O‘qituvchi bo‘lgan.

1932-yili “Milliy ittihod” tashkiloti tomonidan Turkiyaga o‘qishga yuborilgan. Aksilinqilobiy, millatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Muhiddin Hakimov – 1885-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotning sobiq sarkori va milliy-ozodlik harakati tashkilotchilaridan biri. Aksilinqilobiy guruh tashkilotchisi sifatida uyida kengash o‘tkazganlikda, mag‘lubiyatchilikka oid trotskiycha targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Jazo muddati 1937-yil 9-iyuldan hisoblangan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

YANGI NASHR

“JADID” KUTUBXONASI” JAVOHIRLARI

“Jadid” gazetasi tashkil etilganidan buyon tahririyat bilan yelkama-elka turib mehnat qilayotgan, gazetachilikning issiq-sovug‘ini birga totib, har hafta ilmiy va rasmiy vazifalaridan ortib, ilm xazinasidan ommaga ulush ajratib berayotgan ikki olimni alohida e’tirof etamiz. Bular fidoyi ustozlarimiz – tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinov hamda filologiya fanlari doktori Bahodir Karim. Biri qatag‘on qurbonlari, biri jadid adabiyoti borasida nashrimizning tayanch ustunlaridan hisoblanadi.

Gazetaning ikki yillik taxlamini varaqlar ekanmiz, ularda mazkur professorlarimizning maqolasi chiqmagan sonni topa olmadik. Maqolalar ichidan esa eng saralarini saylab, kitob holiga keltirish fikri paydo bo‘ldi. Chunki shiddatli zamonda doim ham gazetani qidirib topish, zarur maqolani belgilash oson bo‘lmaydi. Kitob esa ma’lumotlarni yaxlit ko‘ra olish, qiyoslash va taqqoslashni osonlashtiradi.

Shu ma’noda, “Jadid” kutubxonasi” ruknining nishonasi bo‘lgan ikki kitobni o‘quvchilar hukmiga havola etamiz.

“MILLAT FIDOYILARI”

Ma’lumki, 1937–1953-yillarda 100 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan. Ularning 13 ming nafari otib tashlangan, o‘n minglab kishilar surgun qilingan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a’zolari bo‘lgan.

Bugungi kunda qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini atroflicha o‘rganish va tadqiq etish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so‘nggi sakkiz yilda 1 ming 200 dan ziyod siyosiy qatag‘on qurbonining nomlari oqlanganini alohida qayd etish lozim.

Kitobga so‘zboshi yozgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton ta’kidlaganidek: “Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘on siyosatini respublikamizda birinchilardan bo‘lib tadqiq etgan Rustambek Shamsutdinovning Vatanimiz tarixiga oid, maxfiy arxivlarda yopiq saqlab kelingan nodir hujjatlarni



atroflicha o‘rganib, tarixiy haqiqatni tiklash yo‘lida sabr va matonat bilan ishlashi, nafaqat yurtimiz, balki qator xorijiy mamlakatlarning ilmiy fondlarida muntazam ravishda izlanishlar olib borishi, to‘plangan noyob materiallarni O‘zbekistonga olib kelib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola etishi, ilmiy iste’molga kiritishi har jihatdan ibratlidir”.

Rustambek Shamsutdinov qalamiga mansub “Millat fidoyilari” kitobida ana shu tadqiqotlar obyekti bo‘lgan 40 nafar insonning hayoti va faoliyati, ayanchli taqdiriga oid yangi va aniq ma’lumotlar aks etgan. Hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma’lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish yo‘lidagi bu sa’y-harakatlar yurtdoshlarimizni befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

Kitobdan olingan quyidagi parchalarni o‘qir ekansiz, mustamlakachilik va qatag‘on siyosatining fojiasini teran anglaysiz:

“Ma’lumotlarga ko‘ra, u o‘zi to‘lg‘azgan shaxsiy varaqasida “Qaysi tillarda erkin gaplasha olasiz?” degan savolga “fors, rus, turk, qozoq, o‘zbek, fransuz, lotin tillarini bilaman”, deb javob qaytargan. Lekin u o‘zining qat’iy dunyoqarashiga ega bo‘lgan shaxs sifatida sovet siyosatchilari bilan til topisha olmadi” *(“Birinchi milliy yurist”).*

* * *

“Bu kunlar qancha og‘ir va mudhish bo‘lmasin, ko‘z o‘ngimdan bir minut nari ketmaysizlar. Menga qarab “Qachon kelasiz?” degan so‘zingiz hozirgina aytilganday qulog‘imga tovush berib turar. Rahbar, men ma’naviy jihatdan o‘lik va ruhiy tarafdan sog‘lig‘ini yo‘qotgan, qolaversa, hamma narsadan judo bo‘lgan, ayniqsa, O‘zbekistonning necha qizlari ichidan saralab, zo‘rg‘a diydoriga yetgan suygilimdan uzoqdaman *(“Men ayol zotida bir jahon ko‘rdim”).*

* * *

“O‘sha yil kuzagida Bo‘taboy Dadaboyev bilan yana bir qiziq holat sodir bo‘ladi. Farg‘onadagi “Военное собрание” binosida spektaklga kirmoqchi bo‘lganida, unga “sartligi uchun” patta sotishmaydi *(“Bo‘rondan kuchli”).*

“BOTMASIN CHIQQAN QUYOSH”

Hazrat Amir Alisher Navoiy: “Quyoshliq istasang, kasbi kamol et”, deb yozadi. Kasbda kamolga yetgach, yana bir vazifani qo‘yadi: “Hunarni asrabon netgumdir oxir, Olib tuproqqami ketgumdir oxir?”

Hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini ana shunday ezgu tamoyillar asosida bunyod etib kelayotgan Bahodir Karimning ushbu kitobi oltmish yoshini qarshilayotgan olimga “Jadid” gazetasi tahririyati, muassislari va mushtariylari nomidan samimiy tuhfa



bo‘ldi.

Ayonki, ilmiy uslubdagi asarlar aksar hollarda xoslar uchun, tor doiradagi mutaxassislar uchun yoziladi. Shuning uchun ham, unda murakkab ifodalar, lug‘attalab so‘z va atamalar, zich va shiddatli tafakkur oqimi ustunlik qiladi. Bu borada o‘zini olim hisoblagan zot borki, qalami ravon yuradi. Ammo ana shu ilmiy uslubni keng o‘quvchilar ommasiga moslash, oddiy kitobxon ham tushunadigan tilda yetkazib berish – oson yumush emas. Chunki buning uchun ilm va tajribadan tashqari, ijodkorlik, yozuvchilik va albatta, jamiyat tomir urishini his qiladigan sezgirlik talab etiladi.

Bahodir Karim ilmda ham, ijodda ham, ilmiy va ommabop nashrlarda ham faol olimlardan. Xususan, 2024-yil 1-yanvardan buyon “Jadid” sahifalarida chop etilgan yuzdan ortiq material – maqola, tahlil va taqrizlari mutaxassislar va o‘quvchilar tomonidan iliq kutib olindi, ijodiy bahs-munozara uyg‘otdi. Ana shu maqolalar orasidan eng saralari tanlanib, bir muqova ostiga jamlangani xayrli ish bo‘ldi. Muallifning jadid adiblarining yetakchi g‘oyalari, faoliyati, asarlarining tahliliga bag‘ishlangan bitiklari o‘ziga xos milliy pafosi bilan ajralib turadi. Jadid matbuotidan zarrama-zarra jamlangan ma’lumot va manbalar zamon bilan uyg‘un talqin etiladi.

Shuningdek, kitobdan joy olgan qardosh millat adiblari va adabiyotiga doir maqolalar va boshqa turli ijtimoiy-ma’rifiy mavzularda yozilgan fikr-mulohazalar ham o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi, albatta.

Sarlavhalardayoq bu kitob qanday ma’naviy ozuqa va’da qilayotgani ayonlashadi: “Navoiyning otini oltin bilan yozaylik”, “Boburnoma” o‘qiyotgan Otabek”, “Chingiz Aytmatovga ergashgan adib”, “Ozarbayjonda “O‘tkan kunlar”, “O‘n bir oyning sultoni”, “Majlisdan haydalgan Majlisiy”, “Jur’at sabog‘i”... Mundarijaning tuzilishi ham ramziy ma’no kasb etadi. Undagi oltmishta maqola oltmish yillik umrga ishora qiladi.

Darvoqe, hazrat Navoiy uqtirganidek, Bahodir Karim bilganlarini asrab o‘tirmaydi, uni nafaqat talabalar va shogirdlariga, balki butun xalqqa taqdim etadi. Chin ziyoli olimimizga barakali umr va sermahsul ijod tilab qolamiz.

* * *

Har ikki kitobning noshirlik ishi namunali bo‘lib, original muqova, o‘ziga xos dizayn o‘quvchini o‘ziga tortadi, matnlar bilan birga berilgan suratlar mavzuni to‘ldiradi, tanlangan qog‘oz ko‘zni charchatmaydi, diqqatni bo‘lmaydi.

Ma’lumot uchun, “Jadid” kutubxonasi” ruknida 2025-yili “Tilda, fikrda, ishda birlik!” nomli yilnoma to‘plami chop etilgandi. Yaqin kunlarda ushbu to‘plamning ikkinchi jildi ham o‘quvchilar qo‘liga yetib boradi.

Otabek BAKIROV

GURUNG

ADABIYOT – XALOSKOR KUCH, NAJOT TUYNUGI

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri Ahmadjon MELIBOYEV bilan suhbat

– Ustoz, “Jahon adabiyoti” jurnali tashkil etilganiga qariyb 30 yil bo‘ldi. Qisqa muddat ichida mashhurlik va manzurlik bobida “otaxon” jurnallar safidan munosib o‘rin oldi. Siz hayot va ijodda katta tajriba to‘plagan paytingiz ushbu jurnalga Bosh muharrir bo‘ldingiz. Keling, suhbatimizni shundan boshlaylik.

– O‘zbek milliy matbuoti og‘ir va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan desak, xato bo‘lmaydi. XX asrning 20-30-yillari jurnalistikasi, jumladan jadidlar publitsistikasi bizga bugun juda katta saboq, mahorat, jur’at maktabi bo‘lib turibdi. Jurnal jamoasi ana shu oltin silsilaga qo‘shilganidan hammamiz xursandmiz. Matbuot bilan bog‘liq taqdirim shunday kechdiki, menga “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligida ikki ulug‘ ustoz – Asqad Muxtor va Odil Yoqubov boshlagan jur’atli ishlarni, “Jahon adabiyoti”da esa yana bir ustoz Ozod Sharafiddinov shakllantirgan mahoratli jamoani boshqarish nasib etdi. Shu bois, omadim kelganidan xursand bo‘lib, ishga jiddiy kirishdim. Buning asosiy sababi – dunyo bugun shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Odamlarning hayot tarzi, insoniy munosabatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar qaysi tomonga og‘ayotganini bilish qiyin va bu jarayon hali-veri tugamaydiganga o‘xshaydi. Inson tafakkuri Quyosh sistemasini ortda qoldirib, undan aql bovar qilmas uzoqlikdagi galaktikalargacha yetib bordi, ayni paytda salmog‘i nari borsa “Quvaning anoricha” bo‘lgan Yerda qonli taloto‘plar, yer, suv, boylik talashish, bo‘lingan, tilkalangan hududlarni qayta taqsimlash, begunoh odamlar ustiga o‘q yomg‘iri, bomba va snaryadlar yog‘dirish avjga chiqmoqda.

Bu hali hammasi emas. Sun’iy intellekt siz xohlagan mavzuda ilmiy maqola, dissertatsiya yozib berishi, she’r to‘qishi, nomingizdan sevgi izhor qilingan maktublar yozishi bugun oddiy voqea bo‘lib qoldi. Ilmiy tafakkur rivoji shu yo‘sinda rivojlanar ekan, oradan ma’lum vaqt o‘tib, kitob do‘konlarida robotlar qalamiga mansub romanlar, sarguzasht qissalar, she’riy to‘plamlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu xavotir bois, Shukur Xolmirzayevning mashhur “Adabiyot o‘ladimi?” degan savoli yodga tushadi. Bugun bunday tushuniksiz, mavhum vaziyatda badiiy adabiyot nima bo‘ladi, u ham yangi sharoitga moslashadimi yoki o‘zining avvalgi tarbiyaviy mavqeyini, ta’sir kuchini saqlab qoladimi, degan savol tug‘iladi. Negaki, adabiyot deb atalmish yozma ne’mat azal-azaldan Inson qalbi, ruhi uchun xizmat qilib kelgan. Odam nasli boshiga og‘ir falokatlar yog‘ilganda, omonlik yo‘llari torayganda, turfa ixtiloflar jonini garovga olganida adabiyot xaloskor kuchga, najot tuynugiga aylangan.

– Jurnalda asosan boshqa tillardan qilingan tarjimalar beriladi. O‘zbek tiliga o‘girilgan asarlarni nashrga tayyorlashda nimalarga e’tibor berasizlar?

– Bu jarayon oson kechmaydi, albatta. O‘zbek adabiyotida tarjimonlik maktabini yaratgan ko‘plab ustozlar olamdan o‘tib ketishdi. Bugun ularning izdoshlari maydonga chiqishayotir. Mahorat deganlari bir kunda paydo bo‘lmaydi. Ammo yoshlar orasida turli xorijiy tillarga tishi o‘tayotgan tarjimonlar ko‘payayotgani katta yutuq. Tarjima uchun asar tanlashda bizning talabimiz quyidagicha: asar badiiy jihatdan mukammal bo‘lishi, mavzu va maqsadi jihatidan o‘quvchilarimizga biror naf keltirishi, tarjimon asar ruhi va muallif uslubini saqlashga harakat qilgan bo‘lishi kerak.

– Jurnalda e’lon qilinayotgan asarlarning hammasi ham shu talabga javob beradimi?

– Shunday bo‘lishi uchun tarjimonlar bilan jiddiy ishlaymiz, matn ikki-uch bor tahrir qilinadi. Ba’zan bitta so‘z yoki ibora ustida tortishib ham qolamiz.

– Bugun biz tamomila yangicha sharoitda yashamoqdamiz. Dunyo o‘zgarib ketdi. Qarashlar, prinsiplar o‘zgardi. Bunday paytda jurnalistika qanday yo‘l tutgani ma’qul?

– Bugun “eski” professionallar va yosh ijodkor avlod o‘rtasida o‘ziga xos qarashlar kurashi davom etmoqda. Bir tomon matbuotning ta’sirchanligi muhim desa, ikkinchi tomon: “Yo‘q, tezlik muhim” deydi. Bu, afsuski, ozchilikning fikri emas. Jurnalistikani “tik-tok”lashtirish, sohani robotlashtirish harakatlari va IT gigantlari bosimi OAV faoliyati ta’sirchanligini keskin pasaytirib yubordi. Shu bois, ba’zan “Qog‘oz jurnalistikaning umri tugab bormoqda” degan o‘ta mas’uliyatsiz gaplar ham quloqqa chalinadi. Ikkinchi tomondan, yirik media tuzilmalari mo‘may daromad ortidan quvib, sohaning ijtimoiy mas’uliyati hamda axloqiy qoidalarini mensimay qo‘ydi. Ba’zi uzoq-yaqin joylarda matbuot turli bosim va tazyiqlar ostida faoliyat yuritayotir. Buning oqibatida nashrlar o‘z oldilaridagi ijtimoiy-ma’naviy burchlaridan chekinib, “xo‘jayin”larning talabiga qarab ish tutmoqda.

Bu bahsda men hamisha erkin, xolis, tezkor, ta’sirchan, jamiyatdagi ma’lum muammolarni oldindan ko‘rib, bong uradigan jur’atli jurnalistika tarafidaman.

– Matbuotda e’lon qilingan birinchi maqolangiz chiqqaniga oltmish yildan oshibdi. Ko‘p yaxshi-yomon holatlarni boshingizdan o‘tkazgansiz. Biror marta bo‘lsin tanlagan kasbingizdan hafsalangiz pir bo‘lganmi?

– Yo‘q, bunday holat bo‘lmagan. Aksincha, men jurnalist kasbini tanlaganimdan faxrlanib yuraman. Mendan bir talaba: “Agar jurnalist bo‘lmaganingizda boshqa qaysi kasbni tanlagan bo‘lardingiz?”, deb so‘radi. Men “Yana jurnalistlikni tanlagan bo‘lardim”, dedim. “Jurnalistika: 100 savolga 99 javob” deb nomlangan kitobimda bir savol bor: “Bu olamdan hammamiz o‘tib ketamiz. Mo‘jiza sodir bo‘lib, 100 yilmi, 200 yilmi, qachondir bu dunyoga bir kunga bo‘lsin qaytib kelsangiz, bu yorug‘ olamni qayta ko‘rishni nimadan boshlardingiz?”. Bu savolga to‘xtamay, “Kioskalardan bir necha gazeta sotib olib, ularda qanday mavzular yoritilayotgani, adadi, qalam haqi qanchaligiga qiziqardim”, deb javob berganman.

– Bugun yosh ijodkorlarga alohida e’tibor berilmoqda. Yosh qalam sohiblarining birinchi kitoblari chop etilayotir. Adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarning ijod namunalari sizni, umuman, ustozlarni qoniqtiradimi?

– Qoniqtiradigina emas, ularning ayrimlariga havasimiz ham keladi.

Davlatimiz rahbari adabiyotga, jamiyatda sog‘lom ijodiy muhit bo‘lishiga alohida e’tibor berib, iste’dodli yoshlarni aniqlash, tarbiyalash, adabiy jarayonga tortishni Yozuvchilar uyushmasi oldiga g‘oyat mas’uliyatli vazifa sifatida qo‘ydi. Bu borada juda katta ishlar qilinyapti. Ijod maktablari gurillab ishlayotir. Zomin seminariga borgan bo‘lsangiz, o‘sha yerda har yili yangi-yangi shoirlar, publitsistlar, tarjimonlar kashf etiladi. Ko‘plari bundan yigirma-o‘ttiz yil avvalgi ijodkor tengdoshlaridan keskin farq qiladi: fikrlari keng, jur’atli. Mashqlarida yangicha bir harorat, hissiy tuyg‘u bor. Buni, albatta, e’tirof etish kerak.

– Bugun mamlakatimizda kitobxonlikka davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilyapti. Ammo adabiy did haqida mushohada kamroqday...

– Adabiyotning muhim vazifalaridan biri hayot voqeligini badiiy ifoda vositalari orqali tasvirlashdan iborat. Adabiyotni, demakki, badiiy tafakkurni yuksak maqomda tutib turadigan, o‘quvchini obrazli mushohadani to‘g‘ri idrok etishga o‘rgatadigan o‘zgarmas qoida bu. “Taom yeyilsa, to‘n kiyilsa, ot minilsa ma’qul” deganlaridek, ijod mahsuli, u qaysi janrda yozilgan bo‘lmasin, saviyasi baland, ega-kesimi o‘rnida, tishli-fikrli bo‘lsa, albatta, o‘qiladi. Bugun adabiyotimizda yuksak saviyali asarlar bilan birga, turfa xotiralar, umr yo‘llari va ulardan anglashiladigan xulosalar asosida yozilgan memuarlar ham yaralmoqda, buning yomon joyi yo‘q. Ammo... o‘quvchi uchun ularning hammasi – hazrati kitob. Kitobxon bo‘lmoqchimi, mukofot olmoqchimi, demak, o‘qishi kerak. “Men o‘nta kitob o‘qidim, o‘n beshta o‘qidim” deyish uchunda. Bu – noto‘g‘ri yo‘l. Biz bugun yoshlarimizda qanday asarlarga qiziqish borligi, qanday asarlar o‘qilayotgani, boshqa muhim asarlar e’tibordan chetda qolayotganini aniq tasavvur qilishimiz, yoshlarga o‘qish uchun kitob tavsiya qilishda adashmasligimiz zarur.



Chingiz Aytmatovning aksariyat qissalari qirg‘iz xalqining quvonch-u tashvishlari haqida. Ammo, nega endi “Jamila” dunyo xalqlarining yuzdan ortiq tiliga tarjima qilingan? Birgina Germaniyada ushbu qissa qirq marta nashr qilinibdi. Jamilaning yoshidagi olmon ayol qayerda-yu, qirg‘iz Jamila qayerda? Mana shu yerda bir uyg‘unlik bor: ayol hamma joyda ham ayol, u hamma joyda sevishi, sevilishi, hurmatga sazovor bo‘lishi kerak. Buning uchun kurashish ayb emas.

Jurnalning har yangi sonini rejalashtirishda biz tahririyat pochtasi bilan qanoatlanib qolmaymiz, adabiy jarayonda qanday yangiliklar bor, qanday oqimlar paydo bo‘lyapti, deb kuzatib boramiz. Avvallari hind, arab, fors adabiyotiga, endi yapon, koreys, xitoy adabiyotiga qiziqish kuchaymoqda. Shu adabiyotlardan qilingan tarjimalarni o‘qiymiz, taqrizga beramiz, adabiyotshunoslardan maslahat olamiz. Ammo Boltiqbo‘yi, Kavkazoldi, Uzoq Sharq mintaqalari adabiyotidan tarjimalar berishda oqsayapmiz. Avvallari eng mashhur asarlar sovet tuzumi paytida rus tilidan tarjima qilingan. Qizil mafkura qoliplariga to‘g‘ri kelmaydigan joylari qisqartirilgan. Bu bo‘shliqni to‘ldirish ham bizning zimmamizda.

Bir vaqtlar, hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakultetida ustozimiz G‘aybulla Salomov “Tarjima nazariyasi” degan kafedraga mudirlik qilib, hammamizni tarjimonlik mahoratiga o‘rgatgan. Shu kafedrani tiklash vaqti keldi, nazarimizda.

– Ustoz, jurnaldan jurnalistikaga qaytsak. Sakson yoshni qarshilayotgan, qariyb 60 yillik tajribaga ega jurnalist sifatida bugungi kun ushbu sohada kadr tayyorlash tizimini qanday baholaysiz? Talabalarga aytar gapingiz va tavsiyalaringiz bormi?

– Afsuski, bugun jurnalistika fakultetlarida o‘qiyotgan talabalarning ko‘pi to‘rt yillik umrini behuda sovurayotganini ko‘rib achinaman. Tanlagan kasblariga qiziqish yo‘q. “Qani, so‘nggi hafta ichida gazetalarda chop etilgan qaysi maqolalarni o‘qidinglar?, deb so‘rasangiz jim turib qolishadi. Bitta talaba o‘rnidan dast turib, “Ustoz, siz bizni gazeta o‘qishga majburlayapsizmi?”, dedi ajablanish bilan. Bu gap kimga yoqar, kimga yoqmas, ammo haqiqat shuki, bunday talabalar kechasi mashina bozorida, dorixona yoki kafeda, yana boshqa bir joyda ishlaydi. Ertalab o‘qishga boradi. Qo‘lida bir varaq qog‘oz yo‘q. O‘tgan darsni so‘rasangiz, ensasi qotadi.

Qohira universitetida jurnalistika fakulteti faoliyati bilan tanishganman. O‘quv yili boshida, masalan yuzta abituriyent hujjat topshirsa, hammasi qabul qilinar ekan. Bir semestrdan keyin o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga qarab oxirgi yigirma beshtasi talabalar safidan chiqariladi. AQSH, Fransiya, Belgiyada bo‘lajak jurnalistlarni asosan mustaqil fikrlashga, tahlil, qiyos, bahs olib borish, ishontirish mahoratiga o‘qitishadi. Har bir muammo yechimi yuzasidan to‘g‘rimi, bahslimi, o‘z fikring bo‘lsin, uni qisqa va tushunarli ifoda etishing kerak, deyishadi.

Biz ham shu tajribalardan foydalanishimiz mumkin-ku. Ammo... hozircha jurnalistikaga jiddiy qiziqib, o‘quvchilik yillariyoq qo‘liga qalam olib, xat-xabarlar yoza boshlagan talabalar soni bu sohaga tasodifan kirib qolgan talabalar sonidan ko‘p emas. 1969-yili jurnalistika fakultetiga kirish uchun hujjat tayyorlaganimda, keyingi besh yil ichida matbuotda e’lon qilingan ellikdan ortiq maqolamni ham topshirganman. O‘sh viloyati gazetasi tahririyatidan “Bu yigit bizda faol qatnashib turadi, qo‘li ancha kelib qolgan, undan yaxshi jurnalist chiqishi mumkin,” degan tavsiya ham olib kelganman. Taassufki, bu talab bugun yo‘q. Har o‘quv yilida fakultetga qay darajadagi yoshlar kelishini bilmaymiz. Bir yili bitiruvchi talabalar bilan suhbatlashar ekanman, ularga: “Nima uchun jurnalistikani tanlagansiz?” degan savol berdim va javobni anonim tarzda yozishlarini so‘radim. Auditoriyadagi 52 ta talabadan 14 tasi telesuxandon bo‘lishni orzu qilishgan, to‘rttasi “Falonchi diktorning kostyumchiklarini havas qilganman”, deb yozdi.

– O‘tgan yili to‘rtta kitobingiz chop etilibdi. Gazetalarga maqolalar yozasiz. Gazetamizda bosilgan “Cho‘zma lag‘mon”ni miriqib o‘qidim. Shuncha ishga qanday ulgurasiz?

– Kitoblar bir kunda yozilmaydi. Ko‘p yillik izlanish, mehnat mahsuli. Muharrirlik meni (qo‘lida qalami bor boshqa muharrirlarni ham) tez ishlashga, shu kunning muhim gapini boshqalardan ko‘ra avvalroq his etishga, qog‘ozga tushirishga o‘rgatdi. Ish faoliyatida turli holatlar bo‘lib turadi. Oldingizga taniqli ustoz ijodkorlar, iste’dodli yoshlar keladi. Jurnal talablaridan kelib chiqib, ko‘p tarjimalarni qayta ishlash zarurligini aytamiz. Ba’zan boshqa bir muallif tarjima qilib, allaqachon kitob bo‘lib chiqqan ishlar ham keladi. Qaytaramiz. Juda yoqimsiz holat yuzaga keladi. Bir ijodkorning ishini qaytarish uchun muharrirning o‘zi ijodkor bo‘lishi kerak.

– Ahmadjon aka, ikki ulug‘ daho – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kunlarda Siz bilan suhbatlashib o‘tiribmiz. Jurnalda bu zotlar haqida ko‘p maqolalar beriladi...

– Avvalo, buyuk bobolar qatori bu ikki dahoga bo‘lgan munosabat keyingi yillarda nafaqat yurtimizda, balki dunyoda tubdan o‘zgardi. To‘g‘rirog‘i, Prezidentimiz olib borayotgan tarixiy adolat siyosati boshqa mamlakat va xalqlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etilishi, Andijonda Bobur shahri barpo etilishi barobarida kuni kecha Pokistonning Islomobodida Bobur bog‘i bunyod etilgani olamshumul voqeadir. Bashariyatga namuna tarzida ko‘rsata oladigan ma’naviy xazina o‘ziga xos ma’rifiy diplomatiya bo‘lib, millatni tanitishga, hurmat qilishga va hisoblashishga asos bo‘ladi. Bizning qo‘limizda ana shunday qudratli vosita bor. Faqat buni o‘zimiz, ayniqsa, yoshlarimiz teran his qilib, chuqurroq o‘rganishimiz kerak.

Shu ma’noda jurnalimiz an’anaga ko‘ra Alisher Navoiyga bag‘ishlangan tadqiqot maqola bilan boshlanadi. Mening o‘zim publitsist sifatida shu ikki dahoning maktublarini jiddiy o‘rganaman. Behbudiy o‘zining “Xat yozmoq shartlari” maqolasida badiiy asar yozishda bo‘lgani kabi, xat yozishda ham ma’lum qoida va shartlarga amal qilmoqlik lozimligini uqdiradi: “Xat borib tegadurgon odamni mulohaza qilib, oni fahm va bilishig‘a muvofiq yozmoq lozim. Xatni kamso‘z, ser’mano yozmoq kerak. G‘azab va xafalik va yo nihoyat xursand va behushlik vaqtinda xat yozmay, holoti daraji e’tidolg‘a kelganda maktub yozmoq avlodur”.

Maktubnavislik murakkab san’at. Insho, munshaot ham ijod. Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiyning bir-birlariga va boshqa ulug‘ insonlarga yozgan maktublari nihoyatda nozik va zarif, nuqtadonlik va mehribonlik tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan. Boburning shaxsiy hayoti va qoldirgan boy ma’naviy merosi uning shoh va shoir sifatidagi murakkab taqdirini o‘rganish bilan birga, bugungi yangi avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda uning farzandlariga yozgan maktublari davlat arbobi, sarkarda va shoir haqidagi taassurotlarimizni boyitadi, uning zamonga, yon-atrofida kechayotgan voqealarga, farzandlariga nisbatan munosabatini oydinlashtiradi.

Bir-ikki misol. Boburning o‘g‘li Humoyun mirzoga yo‘llagan maxfiy maktubi (vasiyati) da quyidagi satrlar bor: “Ey farzand! Hindiston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taolo haqqi senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo‘l. Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hindiston xalqining qalb ardog‘i va bu viloyat ahlini podshohga yaxshi nazar bilan bog‘laydi. Islomning taraqqiyoti ehson tig‘i bilan yaxshiroqdur, zulm tig‘i bilan emas. Ahli sunnat va shialarning ikir-chikiridan ko‘zingni yum. Chunki islomga qarshilar bor. Turli e’tiqoddagi xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat har xil tashvishlardan xoli bo‘ladi”.

Bobur Humoyunning javob maktublarini o‘qir ekan, ulardagi xato va g‘alizliklarni ko‘rib, o‘g‘lini koyiydi: “Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o‘qumaysen, ne uchunkim, agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘quyolmas eding. O‘quyolmagandin so‘ng, albatta, tag‘yir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o‘qusa bo‘ladur, vale asr-u mug‘laqdur. Nasri muammo hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni “to” bila bitibsen, qulunjni “yo” bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo‘lmaydur. G‘olibo xat bitirda qohillig‘ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysan, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari bet takalluf va ravshan va pok alfoz bila bit: ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qig‘uchig‘a”.

Humoyunga yozilgan xatlardan birida ma’lum bo‘ladiki, ota nabirali bo‘lganini eshitib, xursand bo‘ladi, ammo unga qo‘yilgan ismdan ranjiydi: “Ismga “al” qo‘shilmaydi, “Al’amon”ni el “Alamon” deb talaffuz qiladi. Ism qo‘yishda avomning talaffuzini inobatga olmoq kerak.

Bu ma’lumotlarni keltirishimdan maqsad, imlo masalasi faqat Humoyunda emas, bugungi ko‘p yoshlarimizda ham nochor ahvolda. Qo‘l yozuvimiz yo‘qolib bormoqda. Bunga bee’tibor bo‘lmasligimiz kerak.

– Samimiy suhbat uchun katta rahmat ustoz! Sog‘-omon bo‘ling!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 727
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 618
Lotin yozuvida – 12 109
Media kuzatuvchilar – 85 061
Buyurtma: G – 240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI